

Qadriyatlarining boqiy bo'lsin, Navro'z!

جدید

2025-yil 21-mart
№ 12(64)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

TASHRIF

OBOD MAHALLADA BAYRAM SHUKUHI

Davlatimiz rahbari Yunusobod tumanida barpo etilgan "High Town City" majmuasiga tashrif buyurdi. Majmua keng qamrovli bo'lib, savdo va ko'ngilochar markazi, biznes markazi, mehmonxona va zamonaviy turar joylarni o'z ichiga olgan. Bunga 510 million dollar to'liq xorijiy investitsiya yo'naltirilgan. 4 qavatli binoda savdo do'konlari, jumladan, mashhur brendlarning shoxobchalari ochilgan. Restoran va kafelar, ko'ngilochar o'yingohlar, sport maydonlari, kino-teatrlar el xizmatida. Yer ostida avtoturargoh bor.

Savdo markazida shinam kitob do'koni ham ochilgan. Shavkat Mirziyoyev bu tashabbusni olqishlab, metro bekatlari, kutish joylarida ham mo'jaz kitob do'konlari tashkil etish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

Toshkent shahrida jamoat transportini rivojlantirish loyihalari ham ko'rib chiqildi. Ma'lumki, Toshkent metropolitenini Toshkent traktor zavodi dahisigacha olib borish rejalashtirilgan. Shunga muvofiq tayyorlangan yangi loyihaga ko'ra, Buyuk ipak yo'li metrosidan Toshkent traktor zavodi dahisigacha 10 ta bekat quriladi. Bu tarmoq 30 ta mahalla, 148 ming aholini qamrab oladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Bektemir tumaniga ham tashrif buyurib, Iykota mahallasidagi qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishdi.

Bu yerdagi 37 ta ko'p qavatli uy va 1 ming 400 ta hovlida 6 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mamlakatimizda mahallabay amalga oshirilayotgan manzilli ishlar Iykotada ham o'z natijasini bermoqda. Yangi ko'p qavatli uylar qurilgan. Yo'laklar va ichki ko'chalar ta'mirlangan. Maydonchalarga gul va maysalar ekilgan.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida ko'chat ekib, yashillik yaratish ko'lamini kengaydi. Poytaxtimizning Bektemir tumanida yana bir bog'ga asos solindi.

Prezidentimiz davlat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari bilan birga bu yerda ko'chat ekdi. Iykota, Majnunol, Zilola, Rohat va Iqbol mahallalari orasidagi bu hudud avval qarovsiz

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-mart kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.



joy edi. Elning birligi bilan yana bir yashil makon, aholi hordiq chiqaradigan park paydo bo'lmoqda. Uch gektarlik hududga o'rmon konsepsiyasi asosida uch ming tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Ularning sug'orilishi va parvarishiga mas'ullar birlashtirildi.

Mahalla faollari, nuroniylar va yoshlar bilan samimiy muloqot bo'ldi. Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillariga ushbu xayrli tashabbusga hissa qo'shayotgani uchun minnatdorlik bildirdi. Barchani kirib kelayotgan Navro'z bayrami bilan tabrikladi.

Prezident farmoyishi bilan e'lon qilingan dolzarb bir oylik doirasida mahallalarda dehqonchilik



va obodonlashtirish ishlari safarbarlik bilan olib borilmoqda.

Bahorda 125 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan. Bunda ekin joylarini to'g'ri tanlash, sug'orishni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi bog'da ekilgan ko'chatlar ana shu ezgu amalning davomi bo'ldi.

O'ZA

TERAN ILDIZLAR

Maqsadlari bir, udumlari mushtarak

Tojikiston Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda bilan suhbat

– Hurmatli elchi janoblari, avvalo, siz orqali bironor tojik xalqini Navro'z bayrami bilan qutlaymiz.

Ushbu ayyom siz-u bizga ajdodlarimizdan meros ezgu sifatida sanaladi. Biz bu kunning tantanalarini sumalak uchun bug'doy ko'kartirishdan boshlaymiz. Xo'sh, Tojikistonda bayram qanday o'ziga xoslik bilan boshlanadi?

– Tashakkur. Men ham fursatdan foydalanib Navro'z ayyomi bilan butun o'zbek xalqini tabriklayman. Bu bayram ikki qo'shni millat uchun birdek qadrlidir. Tojikistonda ham Navro'z sumalaksiz o'tmaydi. Bu an'ana bejiz emas, uning chuqur ramziy ma'nosi bor, albatta. Bahor umrimizga yangi nafas, rizqimizga yangi tot bilan baraka olib kiradi.

Tojikiston – bahorning darvozasi, dey-miz biz. Chunki tog'li mamlakat bo'lganimiz bois tabiatimiz juda go'zal. Tojik xalqining bayramboshi an'anasi esa bahordagi hadyasi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bahordagi hadya nima ekan, deb o'ylayotgandirsiz? Mamlakat shimolida yosh-yalanglar gulizebo, ya'ni bahor darakhchisi – boychechak ko'tarib xonadonma-xonadon kirishsa, janubiy hududdagi yoshlar gullagan o'rik shoxchasi va endigina barg chiqargan majnunol



novdasidan bahoriy guldasta tayyorlab, uyma-uy yurishadi. Yoshi kattalarga bahordagi berib, ko'ngillarini olishadi. Bu Navro'z bilan tabriklash marosimi bo'lib, azaliy udumimizga aylanib ketgan. Shuningdek, boshqa bayramdosh mamlakatlardan farqli yana bir an'anamiz bor. Tojiklarning bayram dasturxonini "Ne'mati hafti sin va shin" deb atalguvchi, ya'ni "s" va "sh" harfi bilan boshlanadigan yetti xildagi ramziy taom va buyumlar bilan bezatiladi.

– Navro'z Tojikiston va O'zbekiston uchun umumiylik kasb etadi. Ma'lum ma'noda ularni bir-biriga bog'lovchi yana bir rishta desak ham bo'ladi. Shunday emasmi?

(Davomi 2-sahifada.)

QADRIYAT

"Ikki ZULF Ikki
LAYLAT
UL-QADIR"UR"

Bir xalqni yo'qotish uchun unga mansub odamlarni qirib tashlash shart emas. Buning uchun uni o'tmishidan ayirishning o'zi kifoya. Yangicha jamiyat bayrog'i-yu "jannatda ham topilmas" go'zal hayot va'dasi ostida kechgan sovet zamonida xalq paydo bo'lganidan bu yog'iga misqolab yig'gan, hali asrlar xizmat qilishi zarur madaniy boyliklarning ko'pidan ayirildik-qoldik. Marhum ustozimiz, atoqli tarjimon, professor G'aybullayev as-Salom o'kinch bilan: "Biz hammamiz chalamullamiz", deb tan olganlaridek, millatning omisidan ulamosigacha o'z tarixini bilish bobida "alif"ni "kaltak" deb ketaveradigan bo'lib qolgan edi.

Shuning uchun Sharq tugul, jahonni ham lol qoldirib kelayotgan injudek noyob boyligimiz – qadim she'riyatimizning qadriga ko'p ham yetavermaymiz, ba'zan uni tushunmaymiz, gohida tushuntirilmaymiz ham. Buning ustiga, "bir xil, bir xil" deb qoralab, bizni undan aynitib ham qo'yishgan. O'qisak, ko'pchiligimiz zerikamiz. Deyarli har baytda notanish so'z-u tushunchalar uchrayversa, she'r o'qib, zavq olish qiyinroq kechadi ham-da.

Yashirib nima qildik, sovet davrida Navoiy asarlaridagi juda ko'p nozik nuqtalarni to'g'ri, ya'ni aslidagidek sharhlash yillar davomida zimdan taqiqlab qo'yilgan edi.

(Davomi 5-sahifada.)

21-MART - ABDULLA O'RIPOV TAVALLUD TOPGAN KUN

"MANA, BUGUN NAVRO'ZI OLAM..."

Navro'z ayyomida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavallud topgan. Shu munosabat ila aziz ustozimizning rafiqasi Hanifa aya bilan dildan suhbat qildik... Ulug' shoirimizning yorqin xotiralari, dil tubiga cho'kkan orzu-armonlari, quvonchlari Hanifa aya tilida yana bir bor qog'ozga to'kildi.



(Davomi 4-sahifada.)

BIRDAMLIK TUYG'USI

HUMO BO'LIB BOSHIMGA QO'NGIN!

Turkiy elatlar taqvimida bahoriy tengkunlik qadim-qadimdan ulkan bayram sifatida nishonlab kelinadi. Bugungi kun o'lovlarida esa ota-bobolarimizning o'sha an'analari yanada sayqallanib, yanada joziba kasb etib, dunyo xalqlarining e'tiborini o'ziga tortayotgan bayramlar qatoriga kirmoqda.

Yaxshi narsa, yaxshi kunlar hech qachon xalq xotirasidan o'chmaydi. Yaqin o'tmishda qatag'onga uchragan milliy bayramlarimizning mustaqillik sharofati bilan qaytadan qad rostlab, umumxalq bayramiga aylangani buning yaqqol isboti bo'ldi. Hozirgi kunda barcha turkiy xalqlarda bo'lgani kabi Turkmanistonda ham Navro'z keng ko'lamda nishonlanadi. O'tgan yili Navro'z xalqaro bayram deb e'lon qilinish, dunyo miqyosida bu bayramga katta e'tibor qaratilganidan xabaringiz bor, albatta.

Shubhasiz, to'y-hashamlar, bayramlar xalqni yanada jipslashtirib, birdamlik uchun xizmat qiladi.



(Davomi 3-sahifada.)

TAKLIF

ESKI ARAVA IZIDAN

Qirq yil avvalgi gap. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida yig'ilishda bir olim "Ozod Sharafiddinov maktabda o'zbek mumtoz adabiyoti kerak emas, uning o'rniga hozirgi adabiyot o'qitilsin, deyaпти. Bu qanaqasi?" deb qoldi. Hamma hayron. Ozod aka esa izoh berish uchun so'z oldi.

– Men bunday demaganman, qanday qilib Navoiy, Muqimiy asarlari o'qitilmasin, deyish mumkin?! Aksincha, klassik so'z san'atimizni bolalar yaxshiroq anglashi uchun bir taklif aytgandim, ammo uni bu odam tushunmapti, – dedi. – Gap shundaki, bizda adabiyot tarixi ham xuddi mamlakat tarixi kabi, xronologik tarzda – eng qadimgi davrlardan boshlab asrlar osha bugungi kunga qarab rivojlanish tarzida o'rgatiladi. Biroq o'tmish adabiyotimizning tili og'ir, chunki arabiy-forsiy so'zlar ko'p. Bolalar tushunib olgunicha o'quv yili tugaydi. Masalan,

hozir to'qqizinchi sinfda klassik adabiyot, o'ninchi sinfda esa sho'ro davri adabiyoti o'qitiladi. Holbuki, bolaning so'z boyligi yildan yilga oshib boradi, yoshi ulg'aygan sari o'qigan narsasini to'liqroq anglaydi. Shuning uchun men to'qqizinchi sinfda hozirgi adabiyotni, o'ninchi sinfda esa o'tmish adabiyotini o'qitib ko'raylik, deganman. O'ninchi sinf bolasining so'z boyligi o'tgan yildagidan ko'ra, sal bo'lsa-da, ortadi, o'qigan asarini yaxshiroq tushunadi.

(Davomi 5-sahifada.)



Maqsadlari bir, udumlari mushtarak

Boshlanishi 1-sahifada.

– Albatta, shunday! Navro'z xalqlarimizning bir-biriga yaqinlashuviga yana bir omil bo'lib xizmat qiladi. Navro'zni nishonlaydigan hamma davlatlarda bayram kunlari odamlar bir-birlarini tabriklaydi, mehmonga boradi, kekka va bemorlarni yo'qlaydi, bir maydonga yig'ilib ovqatlar tayyorlashadi, yagona dasturxon atrofida jam bo'lishadi, o'yin-kulgi qilishadi, sayillarga chiqishadi. Xuddi shu qadriyat davlatlar o'rtasida ham bor. Ya'ni, bayram munosabati bilan davlat rahbarlari, hukumat mulozimlari, madaniyat va adabiyot vakillari ham bir-birini muborakbod etishadi. Surxondaryoning Termiz, Uzun, Denov tumanlaridan mohir chavandozlar Tojikistonda o'tadigan uluq-ko'pkarilarda qatnashib keladi. Yoki bizning tojik yigitarimiz ham O'zbekistonda o'tadigan shu kabi tomoshalarda qatnashadi. Misol uchun, yaqinda So'g'd viloyatining Guliston shahrida o'tgan ot poygasida o'zbek va tojik xalqlarining eng chapdast chavandozlari ishtirok etishdi. Shuningdek, har ikki davlatdan shoirlar, xonandalar Navro'z shodiyonalarida ijodiy chiqishlar qiladi. Ya'ni, Tojikistonda Navro'z o'zbeklarsiz, O'zbekistonda tojiklarsiz o'tmaydi. Demoqchimanki, bu ikki xalqning dasturxonini bir, udumlari mushtarak. Bayramlar esa ularni xuddi qarindosh-urug'ni to'y bir joyga jamlagan kabi birlashtiradi.

– **Faoliyatingiz davomida Navro'zni qaysi mamlakatlarda nishonlagansiz va u yerlarda o'tgan bayramlardan taassurotlaringiz qanday?**

– Mening diplomat sifatidagi ilk safarim O'zbekistonga bo'ldi va mana, 2021-yildan buyon shu yerdaman. Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida tashkillashtirilgan Navro'z tantanalarida qatnashdim. Bundan bir necha yillar oldin Eron va Afg'onistonda bu bayramning qanday nishonlanishiga guvoh bo'lganman. Afg'onistonning Balx va Mozori Sharif viloyatlarida tashkil etilgan Navro'z sayliga borganman. Lekin taqqoslaydigan bo'lsak, Navro'z aynan O'zbekiston va Tojikistonda juda fayzli o'tadi. Bu balki davlatlarimiz rahbarlarining alohida e'tibori tufayli hamdir. Chunki bu mamlakatlarda Navro'zni nishonlash to'g'risida alohida Prezident qarorlari qabul qilinadi.

Ayniqsa, xotin-qizlarimizning milliy liboslarda ko'rinish berishlar, ota-bobolarimizdan bizga yetib kelgan milliy sport musobaqalarining tashkillashtirilishi bayram shukuhini yanada oshiradi. Umummilliy hasharlar uyushtirilib, hovlidan tortib, ko'cha-ko'ygacha an'anaviy ruhda tozalanishi ham kishiga zavq beradi. Bunaqasi faqat bizning ellarda bor.

– **Elchi janoblari, O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganiga 30 yildan oshdi. Keyingi yillarda o'zaro aloqalarda qanday ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda?**

– Ikki birodar xalqning tarixiy rishtalari juda uzun. Azaldan o'zaro hamdo'stlik va qardoshlik tuyg'ulari



o'zbek-tojik munosabatlarini bir-biriga chambarchas bog'lab kelgan. Diplomatik aloqalarning tobora mustahkamlanib borayotgani esa har ikki mamlakat rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Jumladan, savdo hajmi sezilarli darajada o'sdi. Transport, energetika, tijorat, sanoat sohasida aloqalar yaxshilandi. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ish boshlagach, ikki davlat o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va gumanitar hamkorliklar yuqori darajaga ko'tarildi. Mamlakatlarimiz istiqolga erishgandan to bugungacha 400 ga yaqin xalqaro shartnoma imzolangan bo'lsa, bu muhim tarixiy hujjatlarining eng ahamiyatli biri va katta qismi muhtaram Shavkat Mirziyoyevning boshqaruv davriga to'g'ri keldi. Birgina misol, 2025-yil oxirigacha ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlashni 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday xayrli misollarni yana davom ettirish mumkin.

– **Diplomatik vakolatxonalar davlatlar o'rtasida iqtisodiy-madaniy ko'priklar vazifasini o'taydi. Davlatlararo do'stlik rishtalarining mustahkamlanishi adabiy birligimiz uchun ham juda katta imkoniyatlarni ochib berdi.**

– Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi o'zbek shoir va yozuvchilari ijodi bilan tojik kitobxonlarini tanitish borasida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshiryapti. Jumladan, G'afur G'ulom, Abdulla Oripov, Zulfiya-xonim, Sirojiddin Sayyid kabi bir qator shoir va yozuvchilarning kitoblari tojik tilida chop etildi. O'zbekistonda tojik, Tojikistonda o'zbek ijodkorlari bilan uchrashuvlar tashkil qilinmoqda. Kezi kalganda, o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qiluvchi adabiyotshunos olim Ja'far Xolmo'minov haqida

aytib o'tmoqchiman. Ja'far Muhammad taxallusi ostida qalam tebratuvchi surxondaryolik bu zullisonayn ijodkor mumtoz va yangi davr o'zbek-tojik adabiyoti namunalari o'zaro tarjima qilib, ikki mamlakat kitobxonlari e'tiboriga taqdim etmoqda. Bundan tashqari, o'zbekistonlik jurnalistlarning tojik matbuotida va tojikistonlik jurnalistlarning o'zbek nashrlarida chiqishlari ham o'zaro aloqalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilyapti.

– **Joriy yil 31-mart kuni Xo'jand shahrida uch mamlakat yetakchilari O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralari tutashgan nuqta hududi to'g'risidagi shartnomani imzolashi ko'zda tutilgan. Ushbu muhim tadbirning ahamiyati haqida ham to'xtalsangiz.**

– Davlat rahbarlarining bir joyda jam bo'lib, bu xusud muloqot o'tkazishi mintaqaviy hamkorlik rivojida juda muhim. Xo'jand sammiti O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston uchun qo'lyozma foydali bitimlarning imzolaniishi kutilayotgan tarixiy anjuman sifatida ahamiyatlidir. Kichik bir misol: hozir O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasidan ID kartalar yordamida bemaol o'tib-qaytish mumkin. Yaqin vaqtlarda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida ham xuddi shunday imkoniyatlar yo'lga qo'yilishi rejalashtirilyapti.


– **Mazmunli suhbat va ajratilgan vaqt uchun Sizga minnatdorlik bildiramiz.**

– Salomat bo'ling. O'zbekistondagi barcha qalam ahlini, xalqningizni, xususan, "Jadid" gazetasi mushitariylarini biz ham Navro'z bayrami bilan tabriklaymiz. Do'stligimiz abadiy bo'lsin!

Muhayyo RUSTAM qizi suhbatlashdi.

IFTIXOR

12-mart kuni Yelisey saroyidagi oliy darajadagi uchrashuv chog'ida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronga buyuk fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning o'zbek tiliga tarjima qilingan "Kulayotgan odam" romanining ilk nusxasini sovg'a qildi.



SHOHONA TUHFA

TIKLANGAN AN'ANA

Bundan avval ham davlatimiz rahbari tomonidan Turkiya, Vengriya, Yaponiya, Belarus, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'iston yetakchilariga o'sha xalqlarning mumtoz siymolari qalamiga mansub kitoblarning muhtasham nashrlari hadya etilgan edi.

Bu an'ana ming yilliklarga borib taqaladigan Sharq, xususan, Movarounnahr diplomatiyasi tarixidan munosib o'rin egallagan. Sultonlar, shohlar, amirlar, mirzolar bir-biriga xamsalar, shohnomalar, devonlar va ilmiy asarlarning xattotlar hamda musavvirilar qo'ldan chiqqan betakror namunalarini yuborib turgan. Xususan, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy "Xamsa"lari, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si kutubxonalardan tashqari hukmdorlar xazinasida saqlangan. Muazzam Osiyo poytaxtlariga dunyoviy boyliklardan tashqari yangi va yaxshi kitoblar ham oqib kelgan. So'nggi yillarda milliy diplomatiyamizda kitob sovg'a qilish yana urfga kira boshladi.

VIKTOR GYUGO VA O'ZBEK KITOBXONI

Viktor Mari Gyugo fransuz romantizmining yirik namoyandasi. She'r'i va dramatik asarlarida davrning dolzarb masalalari aks etgan. "Parij Bibi Maryam ibodatxonasini" tarixiy romani voqealari o'rta asrda bo'lib o'tadi, asarda muhabbat fojiasi tasvirlanadi. Romanlarida oddiy fransuzlarning og'ir hayoti va kurashini tasvirlaydi, ulardagi olijanob insonlar turmushdagi pastkashliklar va illatlarga qarshi kurashishadi.

Yozuvchining "Dengiz zahmatkashlari", "Xo'rlanganlar"ning "Kozeta" va "Gavrosh" bo'limlari, "Byug Jargal", "Parij Bibi Maryam ibodatxonasini" asarlari o'zbek tilida nashr qilingan.

Bu yil esa xayrli tashabbus sabab "Kulayotgan odam" romani ham taniqli ijodkor Shozim Minavarov tarjimasida o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Ushbu roman asosidagi spektakl "Kulib turuvchi kishi" nomi bilan 1966-yilda Alisher Navoiy nomidagi teatrdan sahnalashtirilgan.

IBRAT

Prezidentimiz kitob va kitobxonlik targ'ibotini kuchaytirishda shaxsiy namuna ko'rsatib, O'zbekistonning ma'rifat yo'lidan ketayotganini jahon ayvonida yana bir bor ko'rsatib berdi. "Kitob – eng yaxshi sovg'a" degan hayotiy haqiqat yana bir bor o'z isbotini topdi.

EHTIROM

Fransiya yetakchisi Emmanuel Makron Prezidentimizga Napoleon Bonapart ta'sis qilgan "Faxriy legion" ordenini topshirgani ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlarining yangi bosqichi ibtidosi bo'ldi.

Ushbu orden 223 yillik tarixga ega bo'lib, mukofotlanganlar safidan dunyoga tanilgan siyosatchilar va jamoat arboblari, davlat rahbarlari, olimlar, sportchilar va o'z sohasining yetuk kishilari joy olgan.

Otabek ISROILOV

DO'STLIK AYYOMI



O'rinqboy USMON,
O'zbekiston va Tojikiston
Yozuvchilar uyushmalari a'zosi

Har yilgi Navro'zdan ham bu gal ya'yal ochilib ketgan qadimiy va navqiron Xo'jand oliymaqom mehmonlar poyiga anvoiy gullardan, oq, qirmizi, gunafsharang – turli tuslarda tovlanib turuvchi lolalardan poyandoz to'shamoqda. Oppoq o'rik gullari ulug' mehmonlar qadamini ostiga bir-bir to'kilmoqda. Salobatli Mevag'ul tog'i, azim Sirdaryo, ne-ne asrlardan so'zlaydigan Xo'jand qal'asi "Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!" "Xush omaded, mehmononni aziz!" so'zlarini takrorlab turibdi. Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga do'stlik mehri bilan yo'g'rilgan quchog'ini ochmoqda. Tojikiston xalqi qardosh o'zbek va qirg'iz xalqlari vakillarini intizorlik bilan kutmoqda. Bu galgi Navro'z bayrami qadim-qadimdan yonma-yon yashab kelayotgan uch qardosh xalqning katta to'yiga aylanib ketayotir...

Ustoz-shogird Abdurahmon Jomiy va hazrat Alisher Navoiy tamal toshini qo'yan do'stlik asrlar osha bizga meros bo'lib qoldi. Navro'z

XO'JAND MEHMONLARGA MUNTAZIR

ayyomida bu do'stlikka keyingi yillarda ikki millat liderlari yangicha tus berishgani, yangi ruh bag'ishlashgani qayta-qayta aytilajak. Bu ikki rahbarning kuchli siyosiy irodasi tufayli bir muddat uzilib qolgan do'stlik yana tiklandi. Yopiq chegaralar qayta ochildi, cheklovlar bekor qilindi.

Ayni Navro'z arafasida tojik va qirg'iz xalqlari orasida ham quvonchli voqealar bo'lib o'tdi. Ma'nosiz nizolar tufayli besh yil berkilib qolgan chegaralar qayta ochildi.

Uzr, bayramda g'amdan gapirmaydilar, lekin beixtiyor temir darvozalarga aylangan chegara o'tish maskanlarining har ikki tomonida ham qarindoshining to'yiga borolmadi, dilda g'am bilan noiloj ortiga qaytganlar, eng yaqin kishisining janozasiga o'ta olmay, temir panjaralarga kishilar suy'angacha keladi yoshlarini to'kkan kishilar ko'z o'ngiga kelmadi.

Bundan sakkiz yil oldin bu alamli damlar ortda qoldi. Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev – ikki xalq baxtiga Alloh tomonidan tanlangan inson va uni qo'llab-quvvatlagan Emomali Rahmonning qo'lni qo'lga berishlari bois yillar osha yopiq chegaralar qaytadan ochildi. O'sha kunlardagi o'zbeklar va tojiklarning shodligini tasvirlash qiyin.

O'shanda Patar-Andarxon chegara o'tish maskaniga yetib borganim va yurakni shirin hapriqtiradigan ajib bir manzaraning ustidan chiqqanim hamon yodimda. Bir tomonda qarindoshlar, do'stlar, qardoshlar bir-birlarini bag'irlariga bosgancha uzoq vaqt qo'yib yuborishmas, qayoqqa qaramang, kekka-yu yoshning qo'llari duoga ochilgan – ikki mamlakat rahbarlariga uzoq umr, dunyodagi bor yaxshiliklarni tilab, duo qilsin. Uch-to'rt ayol bilan turgan ellik yoshdagi kishi duo qilib bo'lgach, yoniga yaqinlashdim. U hayajon bilan shunday degani esimda:

"Men beshariqlikman. Onam Konibodomdan bo'ladi. Tog'am Konibodomning Ko'chkak qishlog'ida yashardilar. U kishi vafot etganlariga bir yildan oshdi. Lekin fohiga bora olmadik, chegaradan o'tkazishmadi. Mana, baxtimizga yurtimizga xalqning dardini tushunadigan rahbar keldi, chegarani ochib berdi, bo'lar ekan-ku, endi singillarim bilan tog'amning oilasidan ko'ngil so'ragani ketyapmiz..."

Uning so'zlarini jimgina tinglayotgan singillarining ko'zlari jiqqa yosh edi. Mana, o'shandan buyon oradan sakkiz yil o'tdi. Bu orada O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi boshqa chegara o'tish maskanlari ham ochilib, ikki mamlakatning qo'shma bozori qurilishi davom etmoqda.

Shavkat Mirziyoyev Tojikistonga safari chog'ida Xo'jandga tashrif buyurib, muhtasham Arbob saroyidagi do'stlik yig'ilishida qatnashgan edi. Ana shunda Emomali Rahmon Shavkat Mirziyoyevga "Markaziy Osiyoda do'stlik munosabatlarining me'mori" deya ta'rif berdi. Bu millionlarning yurak to'ridagi gap edi! Chindan ham Shavkat Mirmonovich faqat Tojikiston bilangina emas, balki boshqa qo'shni mamlakatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston bilan ham do'stona munosabatlarni tikladi, yopiq chegaralarni ochildi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi do'stlik munosabatlarida o'tgan yili yana bir katta qadam qo'yildi. Ikki qo'shni, qardosh mamlakat ittifoqchiga aylandi. Sakkiz yildan buyon O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy munosabatlar beqiyos darajada o'sdi, sayyohlik rivojlandi. Hozir 270 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi ishlaymoqda. O'zbekiston qisqa fursatda mahsulot yetkazib berish va qabul qilish bo'yicha Tojikiston hamkorlari orasida

yetakchi o'ringa chiqib oldi. Joriy yilda O'zbekistondan Tojikistonga boshqa mahsulotlar qatori sifatli urug'lik chigit olib kelish masalasi hal etildi. Ayni paytda Tojikistonning Isfara shahri tadbirkorlari Farg'ona viloyatida uchta meva qadoqlash korxonasini ishga tushirishdi. O'tgan yili Tojikistonga eng ko'p sayyoh O'zbekistondan kelgan. Samarqand va Buxoroda, Toshkent va Xivada, Farg'ona va Andijonda, Namangan va Qashqadadaryo qadamida tojikistonlik sayyohlarni uchratish.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniy aloqalar ham tobora yaxshilanib bormoqda. O'zaro madaniy kunlari, har ikki mamlakatning kino haftaligi, rassomlar ko'rgazmasi muntazam o'tkazilmoqda. O'zbekistonda tojik ijodkorlarining asarlari o'zbek tilida, Tojikistonda o'zbek qalamkashlarining kitoblari tojik tilida katta, chiroyli, sermazzun to'plam holda chop etildi.

Ancha yillardan buyon uzilib qolgan kino sohasidagi hamkorlik davom ettirila boshlandi. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ustoz-shogirdlik munosabatlari aks etgan, ikki qardosh xalqning buzilmas, abadiy do'stligiga bag'ishlangan film suratga olinmoqda. O'zbekistonlik tojik shoir va yozuvchilar bizning Yozuvchilar ittifoqimizga qabul qilindi. O'z navbatida tojikistonlik o'zbek adiblaridan o'n ikki kishi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'ldi. Ularning kitoblari O'zbekistonda nashr etilmoqda.

Adabiy aloqalar haqida gap ketar ekan, men beixtiyor bundan ancha yillar oldin o'tkazilgan "Muqimiy "Sayohatnoma"si bo'yilab" deb atalgan ajoyib bir tadbirni eslayman. U o'zbek va tojik ijodkorlari, olimlari, san'atkorlarining do'stligini mustahkamlovchi tadbirga aylanib ketgan edi. O'shanda uchrashuv Muqimiy

yashab, ijod etgan Qo'qon shahridan boshlandi. Muqimiy mehnat qilib, ijod qilgan xonada bo'ldik. Shoir ijodiga bag'ishlangan ajoyib adabiy-madaniy kecha o'tkazildi. Shundan so'ng "Sayohatnoma" yo'nalishida yo'lga chiqdik. Farg'onaning Beshariq tumanida, jumladan, shu hududning Rapqon qishlog'ida, Tojikistonning Konibodom va Isfara shahrida adabiy gurunglar, kitobxonlar bilan uchrashuvlar, olimlarning Muqimiy haqidagi suhbatlari, sehrli kuy-qo'shiqlar ijrosi davom etdi. Esimda, "Sayohatnoma" tanishtirgan, birlashtirgan ijodkorlar orasida o'zbekistonlik Yo'ldosh Sulaymon, Malika Mirzayeva, Habibullo Saidg'ani, Bahodir Iso hamda Tojikiston xalq shoirilari Nurmuhammad Niyoziy Ahmadjon Rahmatzod, ona tomondan qo'qonlik bo'lgan katta yozuvchi G'ayrat Hakim, ular qatorida men ham bor edim. Hayot ularni orziqib eslayman, o'shal samimiy, maroqli, do'stona suhbatlarni sog'inaman. Isfarasoy bo'yida mashhur hofiz Qobiljon Yusupovning mikrofonisiz aytgan qo'shiqlari soyni sharqiragan ovozi bilan baland kelgani, butun atrofini, jumladan Isfarasoyini ham somega aylantirib qo'ygani sog'inib-sog'inib xotirlayman.

To'g'ri, hali yuqorida yozganimday, madaniy tadbirlar tez-tez o'tkazilyapti. Lekin "Sayohatnoma" izidan"ga o'xshash tadbirlar yana o'tkazilsa, nur ustiga nur bo'lar edi. Axir, bunday tadbirlar ikki xalq ijodkorlarini bir-biriga tanitadi, oshno etadi, do'stlashtiradi.

Navro'zning xislatlari ko'p. Ular orasida eng yaxshisi do'stlikni yanada mustahkamlashidir! Men Xo'jandda o'tkaziladigan tarixiy uchrashuv o'zbek, tojik va qirg'iz xalqlarining do'stligini ko'z-ko'z etguvchi ulkan, yodda umrbod qoladigan shodiyonaga, tantanaga aylanishiga ishonaman!

SHUKUH

HAMJIHATLIK BAYRAMI

Juda olis tarixga ega bo'lgan qadimiy Sharq xalqlari Navro'zi BMT tomonidan bundan o'n besh yil muqaddam xalqaro bayram sifatida e'lon qilingan edi. Bu, albatta, Markaziy Osiyoning qardosh xalqlari qalbida iftixor tuyg'usini jo'sh urdigan shubhasiz. Negaki, Navro'z bayramining mohiyati azaldan umuminsoniylik g'oyaliga yo'g'rilganligi bilan ajralib turadi. "Bu bayram xalqning poklik va xursandchilik kuni", deganida haq edi elshunos olim Mahmud Koshg'ariy.

Darhaqiqat, Navro'z sharqona yangi yilning birinchi kuni sifatida Eron, Turon zamini va hozirgi Ozarbayjon xalqlari orasida keng nishonlanadi. Bu bayramni hech ikkilanmasdan mehr-oqibat, shirinsuxanlik va eng asosiysi – bir-damlik bayrami deyishimiz mumkin.



Navro'z kunlari ko'kda paydo bo'lgan kamalakka qarata suv sepganlar.

Navro'z shodiyonalariga hamohang tarzda necha ming yildirki, sumalak sayilari ham davom etib keladi. Biroq Sho'rolar davrining 70–80-yillarida sumalak sayli eskilik sarqiti sifatida qoralandi, hatto Komfirqa yalovbardorining tazyiqi bilan mahallalarda sumalak tayyorlash, bayramni nishonlash qattiq taqiqlab qo'yildi.

Orolbo'yi mintaqasida turli millat vakillari azaldan do'st-inoq yashab kelishmoqda. Ular Navro'z bayramini mushtaraklikda nishonlashida ham bu hamjihatlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zaruxan MATEKEYEVA, "Orolqum" Milliy tabiat bog'ining ilmiy ishlar bo'yicha mutaxassisi:

– Qoraqalpog'lar Navro'zni yetti xil donli taom – Navro'z go'ja tayyorlash bilan kutib olishadi. Bunda bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, javdar, loviya, mosh solib go'ja tayyorlashadi. Har bir xonadonda ana shunday taom pishiriladi va qo'ni-qo'shnilarga, ovuldozlarga tarqatiladi. Kishilar, ayniqsa, qariyalar Navro'z go'jasidan tatib, yilning barakotli bo'lishini tilab, duo qilishadi.

Orolbo'yida yashovchi xalqlar Navro'z bayramini bahorgi tengkunlik, to'kin-sochinlik, baxt-saodat, ezgu orzu-umidlar ramzi sifatida ardoqlab keladi. Navro'z kirishi bilan dehqonlar yaxshi niyat bilan yerga urug' qadaydi, bog'bonlar ko'chat o'tqazadi. ko'pkari,

kurash singari xalq o'yinlari har yilgi Navro'z tantanalariga ayrimcha shukuh baxsh etadi. Araz va ginalar unutiladi, muhtoj kishilarga mehr-muruvvat ko'rsatiladi. Baxshi-jirovlar do'mbira chertib, barhayot dostonlar, o'lan va laparlarni kuyga soladilar. Dosh-qozonlarda sumalaklar qaynaydi.

Asqar UMBETAYEV, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qozoq milliy madaniy markazi raisi:

– Orolbo'yi mintaqasida qoraqalpog'lar qatori qozoqlar ham asrlar davomida ahil yashab keladi. Qozoqlarda ham Navro'z bilan bog'liq an'analar, urf-odatlar ko'p. Masalan, hamal oyini qozoqlar "Navro'z oyi" deb atagan. Bu oyda birinchi bo'lib uchib keladigan qushni qozoqlar "navro'zko'k", birinchi bo'lib ochiladigan gulni esa "navro'zchechak" deb nomlashgan.

Qadim zamonlarda qozoqlarda Navro'z tantanalarini to'qqiz kunlab davom etgan. Bunda bo'y yetgan qizlar yigitlarga atab "uyqiochar" degan lazzatli taom pishirishgan. Yigitlar esa qizlarga bayram sovg'alari tortiq qiladilar. Navro'z bayrami tantanalarida ham turli-tuman xalq o'yinlari, sport musobaqalar tashkil etishadi. "Olti baqan", "Qiz quvlash" kabi musobaqalari, ayniqsa, katta-yu kichikda birdek zavq uyg'otadi. Shu kuni doshqozonlarda beshbarmoq, sumalak, palovxonto'ralar pishirilib, dasturxonlarga tortiladi. Kattalar kichiklarni ot va tuyalarda sayr qildirishadi.

G'oyibnazar SULTONOV, Qoraqalpog'iston Respublikasi Turkman milliy madaniy markazi bosh mutaxassisi:

– Qoraqalpog'istonda 200 ming nafarga yaqin etnik turkmanlar yashaydi. Navro'z turkman xalqining ham eng qadimiy, go'zal va betakror bayramlaridan biridir. Turkmanlar azaldan Navro'zni tabiat qo'ynida, xushmanzara go'shalarda, qir-adirlarda nishonlab kelgan. Ular keng maydonlarga o'tovlar tikib, o'yin-kulgi qilganlar. Ayollar tarvuz suvini bir kecha-kunduz qaynatib, shirasi tilni yoradigan ajoyib shinni tayyorlashadi. Shuningdek, semeni – sumalak, dog'rama, pishme, palov singari lazzatli milliy taomlar bayram dasturxonining ko'rkiga aylanadi.

Keng dala va sayhonliklarda yigit va qizlar tarafma-taraf bo'lib "ot chopqi" qilishadi. Bunda chavandoz yigit va qizlar ot yeldirib, kuch sinashadi. Kimning oti marraga birinchi yetib kelsa, tuy, ho'kiz yoki qo'chqor bilan mukofotlanadi. Navro'zda avj oladigan bunday musobaqalarda yuzlab chavandozlar, polvonlar o'z kuch va mahoratlarini namoyish etadilar. Sayilgo'lar baxshilarning navro'z, bahor, tinchlik, totuvlik, hamjihatlikni tarannum etuvchi doston, aytim, lapar kabi kuy-qo'shiqlariga to'lib ketadi. Ayniqsa, tantanalarda katta-yu kichik "Qush tepdi" va "Hilloma" kabi turkman milliy raqsarini birgalikda ijro qiladilar. Daraxt shoxlariga osilgan arg'imchoqlar xotijamlik, farovonlik, baxt-saodat simoli hisoblanadi.

Qardoshlarimizning fikrlariga qo'shimcha qilib aytish mumkin, zamonlar o'tgan sayin qadimiy Navro'z shodiyonasi an'anasi yangicha ruhda sayqal topib boraveradi. Endilikda bu bayram yangi sharqona yilning birinchi kuni, yangi fasl va dehqonchilikning debochasi hamda mehr-oqibat, xayr-saxovat tadbiri sifatida keng nishonlanmoqda. Bu kunlarda odamlar bir-biri bilan diydorlashadilar, sovg'alarga hadya qiladilar, qariyalar, kasallikdan, mehrga muhtoj kishilar holidan xabar oladilar. Zero, Navro'z kishilarni bir-birini avaylashga, hurmat qilishga undar ekan, mohiyatan u faqatgina Eron va Turon xalqlari bayrami emas, balki ezigulik talpinuvchi butun bashariyat shodiyonasidir.

Erpo'lat BAXT, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

JAHON AYYONIDA

TRAMP NAVRO'Z BILAN TABRIKLADI

"Navro'z ko'plab xalqlar uchun bahorning boshlanishi va yangi yilni qarshi olish bilan bog'liq quvonchli ayyomdir. Bu uzoq tarixga ega an'ana o'tgan yilning baraka-ne'matlarini sarhisob qilish va kelayotgan bahorni yangilangan optimizm ruhi bilan kutib olishga imkon beradi.



Bu xalqlar o'zining boy madaniyati va matematikada, ilm-fanda, huquqda, texnologiyada va san'atda betakror iste'dodi bilan jamiyatning rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda. AQSH nomidan ushbu qutlug' ayyom munosabati bilan eng samimiy tilaklarimni izhor etaman. Navro'zingiz muborak bo'lsin!" deyiladi Trampning Oq Uy rasmiy saytida e'lon qilingan bayonotida.


ISTANBUL MERI QO'LGA OLINDI

Turkiya politsiyasi Istanbul meri, eng yirik muxolifatchi – Respublika xalq partiyasi a'zosi Akrom Imomo'g'li va yana 100 ga yaqin kishini, jumladan, Istanbul ma'muriyatining yuqori martabali xodimlarini hibsga oldi.



"BBC" xabariga ko'ra, muxolifatchi Akrom Imomo'g'li hibsga olingach, Turkiyaning ayrim shaharlarida norozilik namoyishlari boshlanib ketgan. Ular Imomo'g'li va boshqalarni ozod etishni, shuningdek, Erdo'g'anining iste'fosini so'ramoqda. Mamlakatda turk lirasini rekord darajada pastladi.

"TELEGRAM" FOYDALANUVCHILARI 1 MILLIARDDAN OSHDI



Pavel Durovning ma'lum qilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga o'rtacha 21 marta ilovaga kirib, unda 41 daqiqa vaqt o'tkazadi.

2024-yilda Telegram daromadi keskin o'sib, 547 million dollar foyda keltirgan.

BETHOVENNING DNK TAHLILI

Lyudvig van Betxovenning vafotidan deyarli 200 yil o'tgach, uning so'nggi iltimosi u hech tasavvur qila olmaydigan tarzda amalga oshirildi.



Olimlar guruhi bastakorning haqiqiy soch tolalaridan olingan genetik materiallarni tahlil qildi. Bu tahlil natijasida uning sog'lig'i, vafoti sababi va hatto kutilmagan oilaviy siri haqida yangi ma'lumotlar aniqlandi, deya ma'lum qilgan "Indiandefencereview" nashri.

Oldingi tadqiqotlar Betxovenning sog'lig'i yomonlashishiga qo'rg'oshidan zaharlanish sabab bo'lgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan bo'lsa-da, DNKning so'nggi tahlili bu taxminni inkor etdi. Uning o'rniga olimlar spirtli ichimliklar iste'moli va jigar kasalliklari bilan birga kechgan hepatit B, ehtimol, uning 56 yoshida vafot etishiga olib kelgani haqida ishonchli dalillar topdi. Biroq tadqiqot uning eshitish qobiliyati zaifligi

yoki surunkali ovqat hazm qilish muammolarining aniq genetik sababini aniqlay olmadi, shu bois ba'zi jumboqlar yechilmay qoldi.

Eng kutilmagan kashfiyot Betxovenning Y xromosomasi bo'ldi, chunki u kompozitorning ota tomondan ma'lum bo'lgan qarindoshlarinikiga mos kelmadi. Bu uning oilaviy shajarasida nikohdan tashqari voqea yuz berganini ko'rsatadi – bu asrlar davomida sir saqlangan haqiqatdir.

BRAZILIYADA YANGI KORONAVIRUS

Braziliyadagi ko'rshapalalarda halokatli Mers virusiga o'xshash yangi koronavirus topildi, ammo uning odamlar uchun xavfi noma'lumligicha qolmoqda.



Xususan, olimlar bu Mers-CoV deb nomlangan Yaqin Sharq respirator sindromi virusiga o'xshashligini aniqladi. U birinchi marta 2012-yilda Saudiya Arabistonida topilgan va shundan beri 850 kishi hayotiga zomin bo'lgan. Virus bilan kasallanish holatlari 20 dan ortiq mamlakatlarda qayd etilgan, deb ma'lum qildi "The Independent".

KXDR BITKOIN ZAXIRASI BO'YICHA DUNYODA UCHINCHI O'RINDA

"Times" nashrida qayd etilishicha, bunday natijaga Pxenyanning muvaffaqiyatli xakerlik hujumlari orqali erishilgan.



Federal tergov byurosi ma'lumotlariga ko'ra, fevral oyining o'zida shimoliy koreyalik xakerlar Bybit raqamli birjasiga hujum qilib, Ethereum kriptovalyutasida 1,56 mlrd. dollardan ortiq mablag'ni o'g'irlagan.

QARDOSHLAR ILHOMI

GO'ZALLIKNING SABABI

Soy bo'yida o'tiribman yor kutib,
Suv bo'yida oy barkashi qalqiydi.
Yuzi oppoq sutga chayib olganday,
Bugun nega u sehrli balqiydi?

Kuni kecha sabo farqin bilmasdim,
Hozir esa aniq jiyda burog'i.
Baliqchi qush o'lja izlab sho'ng'isa,
Chil-chil sinar oyning oltin o'rog'i.

Go'yo yerga ipak gilam to'shalgan,
Anhor to'la suvmas, sharbat oqadi.
Yuksaklarda burgutdayin charx urib,
Xayollarim erkin qanat oqadi.

Xonish qilar bedanalar betinim,
Demoqchikim – tabiatga til kirsin.
Vafodirim, sen bo'lmasang ushbu tun
Shuncha go'zal bo'larmidi – kim bilsin?

Suronboy JUSUYEV,
Qirg'iziston xalq shoiri
Tursunboy Adashboyev tarjimai

HUMO BO'LIB BOSHIMGA QO'NGIN!

Boshlanishi 1-sahifada.

Dunyoning bir necha xalqlari birlashib bu bayramni nishonlashlari esa o'sha davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtirishi, o'zaro izzat-hurmatini oshirishi tabiiy. Navro'z sadolari bugun O'zbekiston-u Turkmanistonni, Ashxobodning Kopetgog'i etaklaridan to Xorazm yerlari-yu Boysun, Olatov tog'lariga qadar, Qozog'iston yaylovlaridan to Kavkaz tog'lariga qadar baralla yangramoqda.

Aslini olganda o'zbek bilan turkman, va umuman, turkiy xalqlar bir ildizdan ungan ulkan daraxtning shoxlari hisoblanadi. Ularning yashash maydonlari, tog'-u bog'lari bir-biriga o'xshash, joiz bo'lsa, bir-birini to'ldirib, bir butunlikni kasb etuvchi kenglik deb qaralmog'i lozim. Xalqlarimiz ham tarjimonsiz o'zaro bemalol muloqot qilishlari – bu juda oddiy holdir. Shunaqa: urf-odatlar o'xshash, to'y-ularida goh turkmancha qo'shiq jaranglasa, unga o'zbekcha kuy-qo'shiqlar ulanadi.

Men ikki el ichida yurgan bir ko'ngil odami – shoir bo'lganim uchun to'y va bayramlarga ko'p yillardan buyon qatnashib kelaman. Davralarda Navro'z, bahor, o'zbek-turkman do'stligi haqida she'r-lar o'qiyman.

Navro'z, eng avvalo, sog'inch bayrami. Albatta, inson zoti borki, ko'klamni, bahorni sog'inadi. Bahorga yetganiga shukronalar aytadi. Bahoriy gullarning ifori dimog'iga tekkanda ruhida masrurlik tuyadi.

Qish tunlari uzundir, ziyo izlab toliqdim,
Dil xastadir seningsiz, kela qolgin, Navro'zim.
Tegramda qish qirovi, ne kulfatga yo'liqdim,
Elagingdan yoz nurin elay qolgin, Navro'zim.

Mudrab yotgan uyquli dala-tuzing uyg'onsin,
Bog'larni o't silkitib, bosgan izing uyg'onsin.
Boychechag-u chuchmoma, lola – qizing uyg'onsin,
Har novdaga gul chaman ila qolgin, Navro'zim.

Xalqim rizq-u ro'ziga eshik ochib ber o'zing,
Dala-tuzni aylanib, urug' sochib ber o'zing,
Ko'k maysaning ko'ksiga shudring – sadaf ter o'zing,
Yer-osmonni charog'on qila qolgin, Navro'zim.

To'lqinlarga shiddat ber daryolarning bo'yida,
Nafasingni sezsinlar xalqim hasham-to'yida.
Kamalakdan bino qur ona zamin ro'yida,
Sen borliqni jonlantir, bo'la qolgin, Navro'zim.

Sog'inganim shunchadir, quchoq ochib ko'rishsak,
Yashnatmoqqa zaminni birga-birga erishsak.
Ko'p ishlarga qodirmiz qo'lni qo'lga berishsak,
Humo bo'lib boshimga qo'na qolgin, Navro'zim.

Do'stlik rishtalarini mustahkamlashga o'zining ajoyib hissasini qo'shib kelayotgan Navro'z sog'inchi barchaga muborak bo'lsin.

Abdulvohid
SAID MUHAMMAD,
shoir
Turkmaniston Respublikasi





“MANA, BUGUN NAVRO‘ZI OLAM...”

Boshlanishi 1-sahifada.

– Abdulla Oripov Navro‘z bayrami kuni tug‘ilgan. Bunda ham bir ishora bor bo‘lsa kerak. Darhaqiqat, daho shoirimiz o‘zbek she‘riyatiga bahor nafasini olib kirgan. Bundan tashqari, ushbu sana “Butunjahon she‘riyat kuni” sifatida ham nishonlanadi. U kishi 1941-yilda – Alisher Navoiydan roppa-rosa besh yuz yil keyin tug‘ilgani ham bejiz bo‘lmasa kerak. Bir so‘z bilan aytganda, Abdulla Oripovdek hassos shoir xalqimizga Yaratganning bir tuhfasidir. Siz shoirimizning umr yo‘ldoshi va eng yaqin maslahatgo‘yi sifatida quvonchlarini ham, iztiroblarini ham birga baham ko‘rgansiz. Sizningcha, Abdulla Oripovning eng yaxshi xislati nimada edi?

– Abdulla akaning tabiatida juda ko‘p insoniy fazilatlar jamlangan edi. U kishi bir qarashda oddiy insondek ko‘rinardi, do‘stlarini, rostgo‘ylikni, yaxshilikni qadrlar, nihoyatda bolajon odam edi. Shoirning zukko nigohidan hech kim ilg‘amagan, boshqalar e‘tibor bermagan narsalar ham chetda qolmas edi. Bir gal mana shu gullarga ishora qilib (*aya qo‘llari bilan keng-mo‘l hovli chetida qator terib qo‘yilgan gultuvaklardagi turfa gullarni ko‘rsatadi*), “Abdulla aka, shu gullarga hech e‘tibor berasizmi?” deb so‘raganida, “Albatta, e‘tibor beraman”, deb javob qilgan va ana shu xonaki gullarim haqida “Birlashgan gullar tashkiloti” degan she‘r yozib berganlar. O‘shanda hazillashib, “Gulga ham siyosatni qo‘shdingiz-a”, deb kulganim esimda.

Juda sinchi odam edi. Ichki sezgi, hissiyotlari kuchli bo‘lgani uchun u kishidan hech nimani yashirib bo‘lmasdi. Hammasini sezib turardilar. U kishiga yolg‘on gapirishning foydasi yo‘q edi. Men biror sirni yashirib, aytishga qo‘rqib, dovdirab turganimda, Abdulla aka boshqa yo‘l bilan shu masalani yechishga yordam berardilar.

– Ustoz bahor haqidagi bir she‘rida shunday degan:

*Qizg‘aldoq bargidek uchar dildan g‘am,
Toshqinlar kiradi qalbimga manim.
Bahoring muborak bo‘lsin ushbu dam.
Mening O‘zbekiston – dilbar vatanim.
Faqat sen qalbimga cho‘krtimay malol,
Charchagan ruhimga ilhom solursan.
Bahor ham, umr ham o‘tar ehtimol,
Faqat sen dunyoda mangu qolursan!*

Umuman olganda, Abdulla Oripov she‘riyatida navbahor, Navro‘z va ko‘klam juda ko‘p vasf etilgan. Bundan chiqdi, ustoz bahorni juda yaxshi ko‘rgan ekanlar-da?

– Abdulla aka bahor va kuz faslini juda qadrlar edi. Yoz – bahorning aynigani, qish



esa kuzning aynigani, derdi hazil tariqasida... Bahor – uyg‘onish, kuz – pishiqchilik fasli. Baribir, bahorga mehri bo‘lakcha edi. Esimda, bir shoir yigit Abdulla aka haqida marsiya yozgandi. Unda “Abdulla Oripov bu dunyoga bahorda kelib, kuzda ketdi” degan satr bor. Bu ham Xudoyimning bir inoyati bo‘lsa kerak-da, aylanay... Bu dunyoda hech bir narsa besabab bo‘lmaydi, to‘g‘rimi? Balki, bunda ham qandaydir ramziy ma‘no bordir...

21-mart – Butunjahon she‘riyat kuni deb e‘lon qilinganida ham u kishi hayratda qolgan edi. Yodimda, tug‘ilgan kunlari edi, bir payt telefon jiringlab qoldi. Shoshilinch yig‘ilishga chaqirishibdi. O‘shanda Abdulla akam uydan chiqmay qo‘ygan paytlari edi. O‘sha kuni istar-istamas majlisa ketdi. Bir mahal qaytib kelib, “Hanifa, bugun meni YUNESKOning majlisiga chaqirishgan ekan. 21-mart – Butunjahon she‘riyat kuni deb belgilanibdi. Lekin mening xabarim ham, bunga aloqam ham yo‘q edi. Rost aytyapman, meni bunga aloqam yo‘q”, deb tinmay o‘zlarini oqlashga urinardi. Hech esimdan chiqmaydi.

– Mustabid tuzum davrida ko‘plab qadriyatlarimiz qatorida Navro‘z ham keskin qarshiliklarga uchragan. Sumalak biqirlab turgan doshqozonlarni tepib ag‘darish, hatto tansiq taomlar ustiga tuproq sochish holatlari bo‘lgan. Shoir o‘sha davrlarni xotirlab:

*Sen bizni kechirgin, ey Navro‘zimiz,
G‘aflatda chalg‘idi ul kun ko‘zimiz.
Yuzingga shapaloq tortib yubordik,
Sho‘rpaxta bosamiz endi o‘zimiz,*

– degan satrlarni alam bilan bitgani rost. Siz shu hodisalarga bevosita guvoh bo‘lgansiz. O‘sha paytdagi tuyg‘ulari, iztiroblari, alamlarini eslay olasizmi?

– Ochig‘ini aytaman, mustaqillikdan keyin o‘sha “sho‘rpaxta”ni birinchi bo‘lib Abdulla aka o‘zining yuragiga bosgan.

Abdulla aka o‘n yillar chamasi Mustaqillik va Navro‘z bayramlari ssenariylarini yozdi. Uyda ijodkorlar yig‘ilib, uch-to‘rt oy Navro‘zga tayyorgarlik ko‘rilardi. Uyimiz Yozuvchilar uyushmasining rosmi filialiga aylanardi. Bayram dasturi har yili o‘zgacha bo‘lishi kerak, bir-birini takrorlamasligi shart, degan talab bo‘lardi. Ming yillik an‘analimiz, unutilish yoqasida turgan qadriyatlarimizni she‘rga solishardi, kuy bastalatib, sahnaga olib chiqishardi. Navro‘zning tarixi, yaqin o‘tmishi va buguni haqida bahslar bo‘lardi. Mana sizga sho‘rpaxta...

– Oxirgi yillarda Abdulla Oripov chet elda davolangan kezlari yonida bo‘lgansiz. O‘sha paytlarda u kishi asosan nimalar haqida o‘ylar, qaysi mavzularda gapirardi?

– Xalqni judayam ko‘p o‘ylardi. Ishdan bo‘shaganidan keyingi umrining oxirgi yetti yilida Abdulla aka uydan chiqmadi, hisob. Bir umr xalq ichida yurgan ijodkor uchun bu oson emas, albatta. Shunda ham el-xalqni o‘ylardi. Keyin men taskin bergan bo‘lib, “Ko‘p siqilmang, hammasi yaxshi bo‘ladi”, derdim. Xorijda yurganida ham faqat Vatan kelajagi va ravnaqini o‘ylab iztirob chekardi. O‘zbekistonni butun dunyoga tanitishni, bayrog‘imiz dunyoning har burchagida hilpirashini istardi. Aslida, hamma orzu-armonlari she‘rlarida mujassam.

– Mana, bugun sun‘iy intellekt haqida ko‘p gapirilyapti. Vaholanki, shoirimiz sun‘iy idrok, temir odam to‘g‘risida oltmish yil oldin she‘r bitgan. Inson hissiyotlari, go‘dak kulgisi, gul ifori, chaqaloq yig‘isini baribir temir odam his qilmaydi. Yoki mana “Genetika” she‘rini olaylik:

*Men ham yashayapman o‘z zamonimda,
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.
Va lekin bilmadim, mening qonimda
Qaysi bir bobomning xislati ko‘proq.*

O‘z ildizini izlayotgan qalbnig taffishi bu. “Men asli kimman, qayerdan kelyapman, o‘zbek xalqining avlodlari ertaga kim bo‘ladi?” degan masalalarni o‘rtaga qo‘ygan shoir. Bir qiziq savol tug‘iladi: Abdulla Oripov o‘zini kimga mansub hisoblagan – Navoiygami yoki sohibqiron Amir Temurga?

– Ko‘proq Amir Temur avlodidanman, deb his qilganlar o‘zlarini. Qashqadaryoda tug‘ilgani uchun bo‘lsa kerak-da! O‘zbekiston yoshlarini ham temuriylar deb atardi. “Yoshlarga” degan she‘rida shunday satrlar bor:

*Oldda kutib turar davrayi sarvar,
Tafakkur to abad ko‘z bilan qoshki.*



*Zora shoning chiqsa bobolar qadar,
Sening kamolingni ko‘rsaydim, koshki.*

U kishi yoshlarimizga qarata, hech bo‘lmasa, bobolaringdek bo‘l, men ham sizlarning kamolingizni ko‘ray, deb xitob qilganlar. Afsuski, hozirgi yoshlarning ko‘pchiligi adabiyotni, xususan, Abdulla Oripov ijodini ko‘ngildagidek bilmaydi. Chinakam shoirlarning kitoblarini ko‘proq chiqarib, maktablarga tarqatish, asarlarini tahlili bilan darsliklarga kiritish kerak, deb o‘ylayman.

– Davlatimiz rahbari ko‘p davralarda Erkin Vohidov va Abdulla Oripov nomlarini ehtimor bilan tilga olib, ularning adabiyotimiz oldidagi xizmatlariga yuksak baho berganlar...

– Abdulla aka Prezidentimiz bilan juda ko‘p muloqotda bo‘lgan. Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati hokimi bo‘lib ishlagan vaqtlarida ham Abdulla akani nihoyatda hurmat qilib, viloyatda o‘tkaziladigan bayram va tadbirlarga, albatta, taklif qilardi. Keyinchalik Abdulla akaning Amerikada davolanishiga ham u kishi bosh-qosh bo‘lganlar. Bir so‘z bilan aytganda, u kishi bizning oilamizga juda ko‘p yordam berganlar. Ilohim, dunyo turguncha tursinlar. Hozir Abdulla aka hayot bo‘lganida

qaniydi! Lekin ishonasizmi, men uchun u kishi hali-hanuz tiriklar. Mana shu uyda men bilan birga hamnafas yashayotgandek tuyuladi. Ba‘zan tushimga kiradi. Birga she‘rlar yozamiz. U kishi aytib turadilar, men qog‘ozga tushiraman. Ha, men uchun Abdulla aka o‘lmagan, u kishi hamisha yuragimda men bilan birga yashaydi.

– Navro‘z bayrami arafasida xalqimizga qanday tilaklar aytgan bo‘lardingiz?

– Avvalo, Abdulla akaning armonlari ushalganidan xursandman. U kishi O‘zbekistonning yaxshi kunlarini ko‘rishni istardi. Mana, o‘sha kunlar ham keldi! U kishi yurtimizning hozirgi ravnaqini ko‘rib boshi osmonga yetgan bo‘lardi, islohotlarning har bir mevasi uchun bittadan yangi she‘r bitgan bo‘lar edilar. Taskin shuki, O‘zbekistonning gullab-yashnayotganidan ruhlari shod ekaniga ishonaman.

Tilagim shu, shoirimiz sevgan bahor barcha yurtdoshlarimizga muborak bo‘lsin. U kishi ardoqlagan jonajon Vatanimiz abadiy gullarga burkansin! Abdulla Oripovni ardoqlagan insonlarni Xudo ham ardoqlab, doim aziz tutsin!

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

Abdulla ORIPOV,
O‘zbekiston Qahramoni,
Xalq shoiri

Lolazorga burdim yuzimni

SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI?

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog‘ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o‘zingni,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog‘lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog‘lar,
Vasling menga bo‘lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g‘arib,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

O‘ngirlarda sakraydi ohu,
Na‘matakda sa‘va mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Mana, bugun navro‘zi olam,
Do‘stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo‘limda gul, seni kutarman,
Umrin bo‘yi chorlab o‘tarmen,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

O‘JAR DO‘XTIR VA CHORASIZ BEMOR HANGOMASI

Yig‘latib bemorning ikki qarog‘in,
Kesib tashladilar bir kun oyog‘in.

Badan tarbiyani sevardi do‘xtir,
Bemorga: – Kezaver, – deyardi do‘xtir.

Bemor yolvorardi: – Yo‘q, deb oyog‘im,
Olib qo‘yishganlar hatto tayog‘im.

Do‘xtir uqtirardi: – Yurgaysan, tamom,
Mening gapim shuldird, bo‘ldi, vassalom.

Ne qilarin bilmas bemor bechora,
O‘ylay-o‘ylay topdi oxir bir chora:

U ikki qo‘lida yura boshladi,
Dunyoni teskari ko‘ra boshladi.

O‘jar do‘xtirdan-ku asrasin xudo,
Avvalo, oyoqdan bo‘lmasin judo.

Turfa hangomaga to‘liqdir olam,
Uchrab turar goho shunaqasi ham.

OG‘RIQLARIM

Yana og‘riq zabtiga olar,
Qisib kelar nafasing og‘ir.
Chug‘ur-chug‘ur qilar bolalar,
Nabiralr bir etak, axir.
Biri deydi: – Tinmasdan aslo,
Yer yuzida rosa yelgansiz.
Gollandiya yoqlardan, bobo,
Bizga pishloq olib kelgansiz.
Chiqib ketay deydi tandan jon,
Hamma narsa go‘yo bema‘ni.
Bir nabiram so‘rar: – Bobojon,
Hindistonning mangosi qani?
Og‘riq yetar so‘nggi damga ham,
Misli oshim oshamaganman.
Shivirlayman: – Jim turgin, bolam,
Men hech qachon yashamaganman.

QUYOSH VA SHA‘M

Nabiram Mumtozbeimga

Abadiyat muhri bor go‘zallik tuyg‘usida,
Qudratin u yo‘qotmas hattoki uyqusida.
Toblanib yursa arzir quyosh nurida, ammo
“Xamsa” yaratasa bo‘lar sha‘mning yog‘dusida.

HAMSHIRA QIZIM BARNONING SHE‘RI

Tomirimni topolmay azob berdingiz bir kun,
Oddiygina ukolni qilolmadingiz, afsus.
Hamshiralr qahatmi sizlarda, nima uchun
Bizning Barno qizchalik bo‘lolmadingiz, afsus.

Har qanday sohaning ham ustasi bor, albatta,
O‘zlariga buyursin maqtab pishirgan oshi.
El aro mahoratning qiymati erur katta,
Baland bo‘lsa ham agar oladigan maoshi.

Shifokorlar ahlini kuzatdim juda uzoq,
Bilmadim, deganlarin eshitmadim men aslo.
Ular ham shoirlarga o‘xshab ketarkan ko‘proq,
Yarmisi ulug‘ bo‘lsa, yarmisi buyuk daho.

Bizlarga kerak asli jo‘ngina, oddiy hayot,
Rostgo‘y va dabdabasiz, ona sutidek halol.
Gohida eslamaymiz, kim berdi bizga najot,
Maqtanchoqning dastidan topgaymiz lekin zavol.

Ummonorti yurtning buldir shifoxonasi:
Muhtasham qasrlardan qolishmaydi u sira.
E‘tirofim aytayin, keldi gapning xonasi,
Bu yerda yetishmaydi Barno degan hamshira.

Xyuston, 19.09.2016.



MUNOSABAT

ZAMONA KINOSIGA CHIZGILAR

Ikrom Bo'riboevning "Ketdik, kinoga tushamiz!" sarlavhali maqolasini o'qib

Kino – shubhasiz, san'atlar ichida eng qudratlisi, chunki u bir vaqtning o'zida millionlab insonlar tafakkuriga ta'sir etish imkoniga ega. Bugungi tezkor, global dunyoda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongini turli mafkuraviy tahdid-u buhronlardan himoya qilish, ularni ruhan va ma'nan barkamol avlod qilib tarbiyalash, shuningdek, boy o'tmishimiz, asriy qadriyatlarimizni jahonga ko'rsatishda kino san'ati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, bugun o'zbek kinematografiyasi ushbu missiyalarni qay darajada uddalayapti? "Jadid" gazetasining joriy yil 28-fevraldagi sonida chop qilingan "Ketdik, kinoga tushamiz!" maqolasida ayni savollarga javob izlanadi, maqola statistik ma'lumotlar, chuqur tahliliy kuzatuvlarga asoslangani, kino san'atining jamiyat hayotidagi o'rni va roli har tarfлама ochib berilgani bilan e'tiborni tortadi.



Muallif dastlab keyingi yillarda mamlakatimizda kino san'atiga qaratilayotgan e'tibor xususida to'xtalar ekan, sohaga doir o'nlab qaror va farmonlar qabul qilinganini qayd etadi. Shuningdek, qariyb chorak asrlik tanaffusdan so'ng Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklangani, "Oltin Humo" milliy filmlarni taqdirlash marosimi o'tkazilayotgani, "O'zbekfilm" binosi ta'mirdan chiqarilgani, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kino san'ati saroyi tashkil etilgani, "Tirik tarix" dasturining ishga tushirilgani, atoqlik kino arboblarning yubiley sanalari nishonlanayotgani singari muhim islohotlarni ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda kino san'atiga hukumatimizning g'amxo'r-lig-u xayrixohligi har qachongidan-da ortdi, ayni jarayonda shaxsan davlatimiz rahbarining o'zi tashabbuskor bo'layotgani soha mutasaddilari zimmasidagi mas'uliyatni ikki hissa oshiradi. Maqoladagi fakt va dalillarni takrorlash fikridan yiroqmiz. Ammo muallif keltirgan misollarning jonli guvohi bo'lgan mutaxassis o'laroq mulohazalarimizni aytmasak, insofdan bo'lmas. Bir vaqtlar "shpaklyovka" maskaniga aylangan "O'zbekfilm" binosi va unga yondosh hudud bugun qay darajada obod bo'lganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu dargohga borsangiz, o'zgarishlardan ko'zingiz quvnaydi, bamisoli kino shaharchasiga tushib qolgandek bo'lasisiz. Atrof-javonibi xiyobonga aylangan, bir yoqda zamonaviy talablar darajasida barpo etilgan "Renesans" kino uyi, bir yoqda Butunrossiya kinematografiya instituti filiali va boshqa binolar jamlangan hududni kezsangiz, rosmansa kinomuhitini his qilasisiz. Muhimi, "O'zbekfilm"da jarayon qizg'in, kino otashi lovvallab turibdi, mayli, baland-u past, yutug'u qusurli bo'lsin, asosiysi izlanish bor. Quvonarlisi, kinoga qiziquvchi, kinoni qismat bilguvchi yoshlar ko'paygan, ular kelajakda o'zbek kinosini jahon ekranlariga olib chiqishni, abadiyatga daxldor filmlar yaratishni orzu qilishadi. Alqissa, ardooli shoirimiz Muhammad Yusufning "O'zbekfilm" sha'niga bitgan tanqidiy she'riga to'la javob beradigan vaqt allaqachon kelgan.



Katta avlod vakillari o'tgan asrning ikkinchi yarmida o'tkazilgan Toshkent xalqaro kinofestivalining dovrig'ini yaxshi eslashadi. Poytaxtimiz Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlariining nufuzli kinoizdihomiga mezbonlik qilar, dunyoning manaman degan kinoijodkorlari mamlakatimizga tashrif buyurur edi. Taassufki, shunday katta festival ancha yillardan beri to'xtab qolgan edi. 2021-yil Prezidentimiz tashabbusi bilan kinofestival qayta tiklandi va o'tgan yillar davomida uch marotaba yuqori saviyada tashkil etildi. "Ipak yo'li durdonasi" nomli xalqaro festival mag'rib-u mashriqni birlashtirib, jahonning ne-ne kinoyulduzlariga bag'rini ochdi, turli millatlarning yuzlab filmlari namoyish etildi. Bu sa'y-harakatlarning bo'layotgani yaxshi, zotan, bugun insonning qalb-u shuuri, ruh-yatiga tez va chuqur ta'sir etish, millatning o'zligi, qiyofasi (imiji), ruhiyati, ma'naviy tutumlari, asriy kechmishlarini dunyoyi dunga namoyish etishda kinochalik qudratli vosita yo'q hisobi. Basharti shunday bo'lgach, uzoq yillik tanaffusdan so'ng ko'hna kentimizda bunday olamshumul festivalning o'tkazilishini har qancha alqasak, arziydi.

Shu o'rinda 2023-yilgi kinofestival doirasida yuz bergan bir voqeani eslab o'tsak. Mamlakatimizga serbiyalik mashhur kinorejssyor, ko'plab xalqaro kinomukofotlar sovrindori Emir Kusturitsa tashrif buyuradi. Aytishlaricha, Toshkentga ilk bor kelgan jahongashta rejissyor poytaxtimizdagi bunyodkorlik ishlarini ko'rib, hayratga tushibdi va Toshkent Parij-u Dubaydan ham zo'r ekan, degan xulosaga kelibdi. "Vaholanki, Emir Kusturitsa shaxsini bilgan insonlar yaxshi anglashadiki, u insonni yolg'on yoxud "paxta qo'yib" gapirishga dunyodagi hech qanaqa pul, hech qanday itifot ham majbur qilolmaydi", deb yozadi o'zbekistonlik kinorejssyor Muzaffarxon Erkinov Facebook sahifasida. Bundan xulosa qilsa bo'ladi, kinofestival mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirishga ham xizmat qilishi mumkin ekan. Axir katta auditoriyaga ega bo'lgan birgina shaxsning e'tirofi sabab minglab say-yohlar O'zbekistonga kelishi hech gap emas!

Maqolada kino san'ati turli rakurslardan tahlil qilinadi, har bir fikrni isbotlash uchun aniq statistik ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, muallifning kinematografiyani ommalashtirish va targ'ib qilishda kinoteatrlar, televideniye va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish haqidagi mulohazalari e'tiborinni tortdi.

Kinoni katta ekranda, kinoteatrdan tomosha qilishning zavqi bo'lak. Chunki mahobatli ekranda filmning butun jozibasi – tasviriy go'zalligi, vizual ifodasi, voqealar muhiti, koloriti, aktyorlarning emotsional holatigacha barini his qilish, yurakdan kechirish mumkin. Katta ekranda hamma narsa tabiiydek tuyuladi: siz shamolning quturishi, ko'roning uvullashi, suvning jildirashi, qushlarning chug'uri, otlarning kishnashini baayni real

hayotdagidek tinglaysiz, vujudingizdagi sezgilar harakatga keladi. Shunday ekan, imkon topib, kinoteatrlarga tushib turish kerak.

Xo'sh, bugun respublikamizdagi kinoteatrlarning ahvoli qay darajada? Ular biz ta'riflagan hodisalarni tomoshabiniga yetkazishga qodirmi? Ikrom Bo'riboev Kinematografiya agentligi taqdim etgan ma'lumotlarga tayanib, mavjud kinoteatrlarning holatini tahlil qiladi. Ma'lum bo'lishicha, hududi jihatidan ikkita katta mintaq – Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatida birorta kinoteatr yo'q ekan! Demak, bu hududlarda yashovchi aholi filmni katta ekran-da ko'rishdek takrorlanmas estetik zavqdan benasib qolmoqda... Kino-teatrlarga tashrif buyuruvchilar sonini oshirish uchun nima qilish kerak? Fikrimizcha, bu borada reklama va marketing tizimini yanada kuchaytirish lozim. Yurtimiz kinoteatrlarida namoyish etilayotgan filmlarni turli media vositalar orqali keng targ'ib qilish, markaziy ko'chalardagi reklama peshlavhalaridan samarali foydalanish dardkor. Hozir kinoseanslar haqida afisha.uz sayti muntazam ma'lumot berib boradi. Shuningdek, agentlik tizimidagi tashkilotlarning telegram kanallarida ham xabarlar mavjud. Ammo bu kanallarning auditoriyasi katta emas. Nazarimizda, kinoteatrlar faoliyatini yirik o'zanlar orqali targ'ib qilish, faol bloggerlar bilan hamkorlik qilish zarur.

Muallifning bugungi mediadunyoda kinematografiyani ommalashtirish, sara filmlarni xalqqa yetkazishda internet imkoniyatlaridan oqilona foydalanish haqidagi mulohazalari ham e'tiborga molik. Zotan, bugun hayotimizni internet-siz tasavvur qilib bo'lmaydi, virtual makon turmushimizning ajralmas uzviya aylangan. Shunday sharoitda yaxshi kinoasarlarni ijtimoiy tarmoqlar, platformalarga joylashtirish g'oyat zarur ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham dunyodagi eng ommabop 10 ta internet platformasiga milliy filmlarni joylashtirish vazifasi belgilangan. Afsuski, hozircha milliy filmlarimizning internetdagi targ'iboti bo'yicha ham maqtana olmaymiz. Maqolada keltirilgan ayrim raqamlar bunga misol.

Qolaversa, o'zbek kinosini televideniye orqali targ'ib qilishga doir fikrlarga ham to'la qo'shilamiz. Davlat va nodavlat telekanallarida filmlar tahliliga bag'ishlangan, kino san'ati yangiliklarini muntazam yoritib boruvchi ko'rsatuvlarning soni va sifatini yaxshilash kerak. Xalqimizga yaxshi xabarlar yutug'ini, saviyasiz fikrlarning kamchiligini ro'yi rost ko'rsatib beradigan ko'rsatuvlarga ehtiyoj katta.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Ketdik, kinoga tushamiz" maqolasi o'zbek kinosining tarixi, zamonaviy jarayonlari, sohadagi muammolar va istiqbol masalalarini ochib beruvchi yaxshi bir tadqiqot bo'ldi. Muallif tomonidan bildirilgan fikrlar, taklif va tavsiyalar mutasaddilar, kinoijodkorlar tomonidan inobatga olinsa, bu faqat milliy kinematografiyamizning rivoji uchun xizmat qilgan bo'lar edi.

Shohrux ABDURASULOV,
O'zR FA San'atshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori

TAQRIZ



MA'LUMOT UCHUN:

Yaqinda Toshkent viloyati Xondayliq qishlog'ida yangi tashkil etilgan kutubxonada hamda G'azalkent madaniyat saroyida jadid adibi Sidqiy Xondayliqning "Saylanma", shuningdek, yozuvchi Asad Asilning "Izlaringni izlayman, Alqor" kitoblari taqdimoti bo'lib o'tdi. Bir guruh taniqli ijodkorlar hamda adabiyot muxlislari ishtirok etgan mazkur taqdimot o'ziga xos adabiyot bayramiga aylandi. Har ikki kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan.

TAHRIRIYAT



ASAD AKANING ASIL BOG'I

Ijod ahli o'zlari yozgan asarlar saviya-darajasini ko'p hollar-da yaxshi biladi. Yaxshi chiqqan kitoblarini boshqalarga o'qish uchun tavsiya qiladi. O'zlari o'qib, o'zlari zavqlanadi ham. Bu hol mening boshimdan ham o'tgani rost. Asad Asil "Izlaringni izlayman, Alqor" kitobi nashriyotga berilgan kunlardan boshlab quvonchini yashirmadi. Uchrashib qolsak yoki qo'ng'iroqlashsak, albatta, shu kitobdan so'z ochadi. Kitob nashr bo'ldi ham. Biroq qo'limga yetib kelmadi. Shu orada yana bir necha marta qo'ng'iroqlashib gaplashdik.

topgan bu kitobning o'ziga kelsak, yozuvlari, bayonlarida muallifning qalbi, dunyoqarashi, vatan-sevarligi, tabiatparvarligi, eng muhimi, bebaho insoniy fazilatlari namoyon bo'ladi. "Chinorlar" maqolasida qishloqda yetishib chiqqan ulkan ma'naviyat zahmat-kashlari xususida ham so'zlaydi. "Tabiatni asraylik!" degan hayqiriq bu kitobda yetakchi. Muallif tabiatni yaxshi ko'radi, ona zamin uchun kuyunadi. Nabotot va hayvonot dunyosini asrashni o'ylaydi. Shuning uchun tog'larni toptayotgan mol-qo'ylar masalasini

ti – aslida voqelikka asoslangan. Unda qahramon o'zini pardalashga urinadi. Biroq unda qandaydir biografik ma'lumotlar seziladi. Zotan, jonivorlarni, qushlarni ehtiyoj qilish xususida yozganlari Asad Asil degan tog'parvar, tabiatparvar, bog'parvar bir insonning chin ma'nodagi og'riq dardlari va yurak sadosidir.

Asad aka tabiat qo'yinda ko'chatlarning gurkirab o'sishi, unishi, odamlarga zavq-shavq bag'ishlab turishi uchun yeladi, yuguradi. Shu bois ov haqidagi hikoyalari tuganchida, garchi voqealarni juda qiziqarli, detallashgan, butun tafsilotlari bilan bayon qilsa ham, jonivorlarni ovlashga chaqirmaydi, balki tabiat insondan o'ch olishi mumkinligiga ishoralar qiladi. Deylik, yonida ulog'i bor tog' echkilarini shafqatsiz otib ovlagan kimsalar qismatidan ta'sirli o'rinlarni topib yozadi.


Adib hikoyalaridagi obrazlar aniq tasavvur qilinadi. Ukkiboy otaning ko'z qarashlari va yurishlari ham o'z ismiga monand. Qish kunida ayiq o'ngiriga tushib qolib, karaxt ayiqni emib jon saqlagan va ayiq bilan ona-bola tutingan Ukkiboy ota shu-shu ovni tashlaydi. Darvoqe, Asad Asil hikoyalarida ismlarga alohida diqqat qaratadi. Ismi jismiga mos kelmagan bir kimsani "Ismi Odil, ichi g'ofil", deb juda qisqa va aniq tavsifladi. Qo'chqor ismli obraz to'g'risida gapira turib, qilinishni ismiga bog'lab "Qizni buraman shoxiga ilib ketdi", deb yozadi.

Asad Asil hikoyalarida qo'llangan so'zlar – ovchilar, ov anjomlari, tog' tabiati – o'to'lanlar, daraxtlar, toshlarga tegishli qator sifatlari va so'zlar borki, ular voqelik tasvirini chinligi, atrof-muhit ob-havosi, hudud koloritini tugal yoritishga xizmat qiladi. Masalan, to'qli, qo'ra, o'tov, keraga tosh, do'lana so'yil, teman dala, og'il-otxona, ayg'ir, ayil, chivir, kiyik, to'ng'iz, ko'chki, o'pqqon, g'oratchi (broknyer) – asarlari matnida bunday so'zlar juda ko'p. Bir hikoyasida mitti kuchukcha ovozigga boshqa itlar sasidan ajratib urg'u beradi. Kuchukcha Sirtlonga aylanadi. Muallif shu olg'ir it bilan Arslon-bo'rini qarama-qarshi qo'yadi. Sirtlonning egasi Shermet akani "otidan ham ko'ra itiga ko'proq ixlos qo'yg'an" deb ta'riflaydi. So'ngra yana bir mubolag'ani qo'shadi: "Havasmamlar gapil bilan aytganda, qiz'irmoy palovidan iligi to'q o'sgan Shermet ovchi zabardast yigitlik yillarida bu tog'larning etagidan kirib, yoqasidan chiqardi. Chotqolning hamma sir-asrnlari unga besh besh qo'lday ma'lum". Dasturxonga qo'yilgan noz-ne'matlar tavsifida: "Lofi bilan aytganda, kosadagi sovin-qiragan sutning qaymog'i ustida chang'i uchsa ko'targuday!" deb yozadi.

Yozuvchi voqeiy hikoyalar ustasi. Ayni damda jonkuyar-kuyunchak tabiat qo'riqchisi ham. Adibning Oqtoshda o'n gektarlik bog'i bor. Bog'ning saxiy og'ochlari har yili mo'l-ko'l hosil beradi. Aslida Asad Asilning asarlari o'quvchilar uchun chin ma'nodagi ma'naviyat bulog'i, adib bunyod etgan muhtasham ma'rifat bog'idir.

Muhtaram gazetxon, adibning "Izlaringni izlayman, Alqor" kitobi o'qib, gapimga amin bo'lasiz, albatta.

Bahodir KARIM,
professor



Asad aka shu go'zal kitobini xuddi menga tavsiya qilganidek boshqalarga ham o'qish lozimligini aytgan bo'lsa ajabmas...

To'g'risi, qiziqdim va yaqinda kitobni Yozuvchilar uyushmasidan oldim. Kitobning naqshbezagi nihoyatda ko'rkam – oq va tabiat rangiga mos yashiltob. O'qiy boshladim. Mazmuni ham muqovani eslatadi. Oydin-muhim fikrlar: tabiatni asrash, qo'riqlash, ehtiyoj qilish – bu kabi masalalar dan kuyunchaklik bilan bayon qilinibdi. Bundan salkam qirq yil narida yozilgan publiksistik maqolalari mazmuni hali-hanuz dolzarb, eskirgan emas.

Inson tabiatdan bahra olar ekan, Asad aka yozgan muammolar hamisha bashariyatga xavf solib turadi. Bir sahifasida ulkan bog' bunyod qilganini bayon qilibdi Asad aka. Shunda beixtiyor yuqoridagi sarlavha xayolimga keldi. Shu oqsoqol adib asari haqida maqola yozmoqqa kirishdim-da, o'zimga savol berdim: "Qachon taniganman Asad akani?" Bu adibning ismini eshitganimga chorak asr bo'lgani rost. Ayrim asarlarini o'qiganman ham. Oqtoshda istiqomat qilayotgani va o'ynayti jahon orqali Asad akaning jismoniy mashqlar bajarayotganini bir ko'rsatuvda ham tomosha qilgan edim. Bunday mashqlarni adib boshqalarga ham o'rgatib yuradi.

Asad Asil bugun Bo'stonlik tumanidagi Xondayliq qishlog'ida istiqomat qiladi. Sidqiy Xondayliq asarlari nashri bo'yicha izlanadi. Matbuotda maqolalar bilan chiqishlar qiladi. Qishloqdagi Sidqiy Xondayliq nomidagi mo'jaz kutubxonaning tashkil etilishida ham Asad akaning ulushi katta, albatta. Kutubxona ochilishida Xondayliqqa bordim. Hammadan ham Asad Asil quvondi.

Akaning "Izlaringni izlayman, Alqor" kitobi munosabati bilan boshlangan bu kirish so'zim biroz cho'zildi. Uzr. Maqolalar, badiialar hamda hikoyalardan tarkib



“Film qalam bilan emas, kamera bilan yoziladi.”

King VIDOR



MILLAT FIDOYLARI

1915-yil. Toshkent. Eski shahar bilan Yangi shahar oralig'idagi pastqam uylardan biridamiz. Hovli to'la bola-baqra. Bunda ota uzzukun kosiblik qilar, shuning ortidan qora qozon qaynab turardi. Bolalarning qo'li mehnatga kelib qolganlari otasiga chinakam dastyor edi, ayniqsa Mirhamid. Bolakay, boshqa teng-to'shlari kabi o'qishga ishtiyoqi baland bo'lsa ham, otasining jo'jabirday jon ekani va shu sabab ularning barchasini birvarakayiga o'qitishga imkoni yo'qligini o'ylab, ko'pda bu to'g'rida og'iz ochmas, bir chekkada mum tishlab o'tirardi.

Mirhamidning o'spirinlik davri shu zayl – kigiz qirg'irlari, uyum-uyum poyabzallar, pax-saga osig'liq g'altak iplar, bigiz-u mixlar orasida o'tib borardi. Bir qarashda betartib ko'ringan bu joyda aslida ortiqcha narsaning o'zi yo'q edi. Otasi ishga tamoman sho'ng'ib ketgan mahallari Mirhamid zumda yengil odimlab ustaxona burchagidan qo'nim topar, ta'mirtalab kovushlar ustida muk tushgancha kitob varaqlardi. O'shanday damlarda bolakayning quloqlari bolg'a taq-tuqlaridan dam olar, dimog'iga kigiz, patak yo sirach hidlari emas, kitob nafasi gupillab urilib, ko'ngli allanechuk rohat tuyardi.

Mirhamidning mutolaaga mehri, ilmga ishtiyoqmandligi bir tomondan ustaxonaga serqatnov mijozlar bilan ham bog'liq ediki, ular to oyoqkiyimi ta'mirlanguncha sherigi bo'lsa u bilan, bo'lmasa kosibning o'zi bilan suhbatni qizitardi. Germaniya, Boku, Moskva-dagi taraqqiyot, yangilanishlar, ta'limda erishi-layotgan yutuqlardan bama'ni gurunglar ketardi. Yigitcha suhbatga oshno tutingisi, o'qishni qanday qilib chetda davom ettirish mumkinligi yuzasidan savollariga javob olgisi, ular entikib aytayotgan o'sha taraqqiyni o'z ko'zlari bilan borib ko'rgisi kelardi. Mijozlar gohida nimadandir hayiqqan bo'lib ovozi ni pastlatar, shivirlashga tushib qolar, bunday payti Mirhamid bordi-yu etikka "taq-tuq"lab mix qoqayotgan bo'lsa, ip qidirgan bo'lib ishidan to'xtar, aslida biror muhim yangilikdan quruq qolmaslik uchun sukunat yaratib, bor diqqatini shivriga qaratardi. Va kunlarning birida...

Ustaxonaga ikki mijoz kirib keldi. Ko'ri-nishidan ularning etikdo'zda ishi ham yo'q, suhbat i avjida edi. "Eskini yamaguncha esing ketadi", dedi ulardan biri yirtiq-yamoq kovushni ko'rsatib imlar ekan. "Haq aytasiz, millatning ko'zini ochish, dunyo ahli qanday taraqqiy qilib yashayotgan bo'lsa, Turkiston ahli ham shunday taraqqiy qilib yashashi uchun intilishimiz kerak", dedi ikkinchisi va fikriga qo'shib qo'ydi: "Buning uchun eskicha qarashlardan batamom voz kechmoq zarur..."

Kutilmagan bu suhbat o'spirinning kelajak maqsadlarini, ahd-u qarorini qat'iytlashtirdi. Shu choq endi bigiz qadab ip tortib, poyida qalashib yotgan oyqoqiymilarga razm solar-kan, ko'z o'ngida nochor, yo'qsil, kelajagidan umidsiz odamlar ahvoloti gavdalandi. Aslida, "ta'mirlashi" kerak bo'lgani mana shu – orzu-umidlar ekanini anglab, bu yog'iga o'zini katta ishlar va ulkan maqsadlarga chog'lashga, hunari barobarida ko'proq ilm o'rganishga jiddu jahd qildi. U ham, barchani yangilanishlarga chorlayotgan boshqa jadidlar singari, elga ma'rifat yoyish, xalqni zalolatdan qutqarish

ORTGA QAYTISH YO‘Q

yo'lida kurashga bel bog'ladi. Shu tariqa qahramonimizning ezgu o'y-fikrlari jadidlar g'oyasi bilan boyidi, to'yindi, musharaklashdi.

1919-yilga kelib mamlakat tubdan o'zga-rayotgan edi. Jadid ustozlari unga: "Dush-manning ichida bo'l, vaziyat qay tarafga og'ayotganidan boxabar bo'lasan. Muhimi, rahbar lavozimlarni o'z vakillarimiz egallashi shart, bu maqsad yo'lida har qanday imkoniyatdan foydalanib qolish kerak", deb uqtirishardi. Mirhamid Xo'jayev o'sha yili Toshkent yoshlar ittifoqi tavsiyasi bilan **maxsus fabrikada** partiya safiga kiradi. Bu harakati, tabiiyki, uni eski do'stlari, eski hayotidan birmuncha yiroqlashtirar, biroq yangi muhit, yangilanishlarga yo'l ochardi. Avvalida

bo'lmasligini kun sayin anglab borardi. Mir-hamid Xo'jayev jarayon allaqachon jadid-lar tomonidan olg'a surilganini yaxshi bil-ar, bu yo'lining o'ta mashaqqatli ekanini ham yaxshi tushunar, agar o'qishni tugatib harakat-ga borib qo'shilsa, turli tazyiq-u ta'qiblarga duchor bo'lishi aniq ekanini ham his qilardi. Ana shu anglovlar uni tobora ulg'aytirib, millat kelajagiga daxldorlik hissini toblab borardi. "Endi chekinish yo'q, ortga qaytish yo'q!" dedi o'ziga o'zi.

...Moskvaning keng ko'chalari, osmono'par binolari, bahs-munozaralarga to'la auditoriya ortda qoldi. Qahramonimiz yurtiga qaytarkan, uning yurak hapriqishi oldida poyezdning shid-datli shovqini eshitilmas, tahsili davomida o'qib-

bermas, ahdidan ham qaytarolmas, ammo kun sayin holdan toydirar, oqibatda bemorlik yetib, bir muddat davlat ishlaridan chetda bo'lib qoldi. 1930-yillar. Mirhamid Xo'jayev sog'lig'id-an shikoyatli shunday vaziyatda ham "o'rgangan ko'ngil..."ligiga borib jamiyatda kechayotgan jarayonlar sur'atini muntazam kuzatib, tahlil qilib borishga intilardi. Qachonki oradan ikki yil vaqt o'tib, ahvoli ancha o'nglangach, ishga qaytarkan, o'sha kuzatuvlari natijasida xalq taraqqiysi uchun ko'plab tashabbuslar, xayrli ishlarni kelgan joyidan davom ettirishda bosh-qosh bo'ldi. Bunda uning Xalq komissarlar soveti ish boshqaruvida hamda Xo'jalik bosh-qarmasi mudiri lavozimida (1934-yil) faoliyat yuritgani ham ancha qo'l keldi. Qahramonimiz g'aflet uyqusida yotgan xalqni uyg'otish yo'lida qancha harakat qilsa, hayotiga shuncha ko'p tahdidlar yog'ilib borardi.

Oxir-oqibatda, 1937-1938-yillari avj olgan "katta terror" yuhosi Mirhamid Xo'jayevni ham o'z domiga tortib ketib, u-da ko'plab begunohlar qatori soxta ayblovlar bilan hibsga olindi. Qahramonimiz "Milliy istiqlo-l" tashkilotiga aloqador deya gumon qilinib, sovet hukumatiga qarshi harakat qilgan shaxs sifatida ko'rsatildi. 1933-yildan beri "sovetlarga qarshi milliy tashkilot a'zosi" sifatida to'planishlarda qatnashgan, degan tuhmatga tashkilot rahbari Fayzulla Xo'jayevning uyida bir necha bor mehmon bo'lgani Mirhamidni qo'lga olish uchun tayyor "asos" bo'ldi; trotskiychilar bilan hamkorlik "ayblov" esa uni "xalq dushmani" sifatida to'liq qoralashga yetarli edi. Mirhamid Xo'jayevga nisbatan O'zbekistonni SSSRdan ajratish, millatchi va aksilinqilobchi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, qo'poruvchilik va xiyonat ayblari qo'yildi. O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalariga ko'ra ularning har biri hukman o'limga olib borardi.

1937-yilning oktyabrda qahramonimizning turmush o'rtog'i Yelena Xo'jayeva ham qamoqqa olinib, etagidagi ikki nafar norasidasi bolalar uyiga jo'natildi.

1938-yil 4-oktyabr. Toshkent shahrida SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi qarori bilan Mirhamid Xo'jayev otildi. Biroq mustamlakachilarning bu qirg'in, qonxo'rlik bilan-da hovuri bosilmay, nishonni uning oilasiga qaratdi.

O'sha mash'um kunlar otadan yetim qolgan farzandlar ongida oxirsiz azob-u xo'rliklari bilan mangu muhrlanib qoldi. Yelena Xo'jayeva qamoqdan ozodlikka chiqqach, bolalarni iz-lab topib, ularni o'z bag'riga qaytardi, tur-mush o'rtog'i nomini oqlash iilnida yana harakatga tushdi, qo'lida ariza bilan turli idora-lar bo'sag'asida sarg'ayib tong ottirdi... Bu harakatlar, afsuski, besamar ketdi.

Oddiy etikdo'zlikdan mamlakat siyosiy tizimida yuqori pog'onaga ko'tarilgan va bu amalni jadidona g'oyalar ijrosini xalqqa targ'ib va tatbiq etish vositasi deb bilgan shaxs nomi bugungi kunga kelib to'laqonli oqlanib, qadr-qimmat rostmana tiklandi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Ergash Nurmuhammedov – 1891-yili Toshkent shahrida tug'il-gan. Samarqand shahrida sav-do xizmatchisi bo'lib ishlagan. 1931-yil 17-yanvarda qamoqqa olingan. "Milliy istiqlo-l"ning faol ishtirok etganlikda, qatag'on qilinganlarning oilalariga moddiy yordam ko'rsatganlikda ayblan-gan.

RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 6-bandlari bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda 10 yil muddatga konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 3-aprelda reabi-litatsiya qilingan.

Karim Ortiqboyev – 1903-yili Qo'qon shahrida tavallud top-gan. "Yangi Farg'ona" gazetasi tahririyatida ekspeditor bo'lib ish-lagan. 1930-yil 31-yanvarda hibs-ga olingan.

U "Botir gapchilar" tashkilotiga a'zo bo'lib, uning targ'ibot ishlari-da faol qatnashganlikda ayblan-gan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 11- bandlariga muvofiq 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan 5 yil konslagerga hukm etilgan. Karim Ortiqboyev 1989-yil 4-aprelda reabilitatsiya qilingan.

Murodxo'ja Allaxo'jayev – 1890-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. Samarqand shahrida o'qituvchi bo'lib ishlagan. 1930-yil 29-avgustda qamoqqa olingan. "Milliy istiqlo-l" tashkilotiga a'zo bo'lganlikda, Samarqandda tash-kiliy va safarbar qiluvchi ishlar olib borganlikda, "Milliy istiqlo-l" maf-kurasini targ'ibot qilganlikda ayb-langan.

RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4-bandi va 10-modda-si 2-bandiga muvofiq OGPU kollegiyasi tomonidan 1931-yil 25-aprelda 5 yil muddatga kons-lagerga hukm etilgan. Keyinroq 1989-yil 30-martda reabilitatsiya qilingan.

Asadulla Xo'jaxonov – 1901-yili Toshkent shahrida tu-g'ilgan. Toshkent shahridagi okrug paxta soyuzida tarjimonlik qilgan. 1929-yili 6-noyabrda qa-moqqa olingan. Toshkentdagi "Milliy istiqlo-l" tashkilotiga yangi a'zolari jalb qilishda ayblangan.

RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- hamda 10-bandlari bilan ayblanib, OGPU kollegiyasi tomonidan 1931-yil 25-aprelda otuvga hukm etilgan. 1989-yili 28-martda reabilitatsiya qilingan.

Murat Ziyatdinov – 1889-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Hu-narmandchilik sanoat uyushmasi raisi bo'lgan. 1930-yil 30-iyulda qamoqqa olingan. "Milliy istiq-lo-l"ning Toshkent shahridagi filiali a'zosi bo'lganlikda, mazkur tash-kilotda g'aznachilik qilganlikda ayblangan.

RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 11-bandlariga asosan OGPU kollegiyasining 1931-yil 25-apreldagi qarori bilan 5 yil qamoq jazosiga hukm qilin-gan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori,
Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

SIZ NIMA DEYSIZ?

Jadidlar ijodi hamda ulardan avval yozilgan tarixiy-adabiy asarlarni o'rganish asnosida "eski o'zbek yozuvi", "arab imlosiga asoslangan o'zbek eski yozuvi", "arab alifbosidagi eski yozuv", "eski o'zbek alifbosi" kabi istilohlardan foydalanilganini ko'rish mumkin. O'n asrdan ko'proq vaqt amalda bo'lgan yozuvga tegishli bu atama-birikmalar haqida beixtiyor o'ylanib qoldim. Tilimiz tarixi bilimdonlariga ham aytdim. Ular orasida bu masalani til siyosatiga, o'tmishdagi bebaho adabiy-ma'naviy merosni zamonadan ajratishga uringan mafkura korchaloni zimmatisiga yuklovchilar ham, til va yozuvga siyosiy tus berganlar ham bo'ldi.

To'g'ri, rus tilida yozilgan "Грамматика староузбекско-го языка" tipidagi kitoblar bor. Ammo bugungi kunda o'zbek olimlarining darslik va o'quv qo'llanmalarini "eski" deb atash hollari ko'p uchraydi. Zotan, til tarixi kitoblarida "eski" atamasi bilan bog'liq



juda ko'p ikkilanishlar bor. Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan kurs ham "Eski o'zbek yozuvi va tili" deyiladi. Bu tala-bada mumtoz adabiy-ma'rifiy merosga nisbatan allaqan-day begonasirash va oraliq masofani uzoqlashtirish kay-fiyatini uyg'otmasmikan?!

Yaqin tarixda "Eski o'zbek yozuvi" nomli maxsus qo'llan-malar nashr qilindi. Ular hozir ham amalda.

Arab imlosiga asoslangan yozuvni nomlash yuzasidan tadqiqotchilar orasida muho-kamalar bo'lgani shubhasiz.

Zero, o'tgan davrlar mobay-nida bu yozuv va til "eski o'zbek yozma adabiy tili", "eski turkiy tili", "eski o'zbek tili", "eski o'zbek tilining klassik bosqichi", "eski o'zbek klassik yozma adabiy tili", "chig'atoy turkchasi", "klassik chig'atoy tili" va shu kabi ko'plab nomlar bilan atalganini kuzatish mumkin.

Nima bo'lganda ham xun-runikdan keyin, uyg'ur yozuvi bilan yonma-yon, pa-rallel qo'llangan yozuvni har qanday vaziyatda arabiy alifbo birlashtirib turadi. Shu

birlik negizida paydo bo'l-gan manbalarning tili va yozuviga nisbatan "eski"ni qo'llash noo'rin nazarimda. Menimcha, "eski"dan voz kechib, "mumtoz"ni qo'llash lozim. Qolaversa, ayrim ilmiy adabiyotlarda "klassik" ham qo'llanilgan. Bizda "eski o'zbek tili" atamasiga o'xshagan "eski o'zbek adabiyoti" ta'biri deyarli ishlatilmaydi.

Bu dunyoda muayyan bir millat borlig'i va birligini mil-liy tili va adabiyoti belgilab beradi. Ular et bilan tirnoqdek, birini ikkinchisidan ajratib bo'l-maydi. Shunday ekan, birini "eski", boshqasini "mumtoz" deb nomlash to'g'ri bo'lmaydi.

"O'zbek mumtoz adabiyoti" atamasi bugun muomalada faol ekan, shunga muvofiq "o'zbek mumtoz yozuvi", "o'zbek mumtoz tili" atamala-rini qo'llash har jihatdan o'rin-li bo'ladi. Kimlardir N.Erki-lmann, A.Frezkayner yoxud D.Sekretaya kabi dunyoga mashhur sotsioprotingvist-lardan iqtiboslar olib, balki bu gapga e'tiroz bildirishlari ham mumkin. Ilmda fikr o'zgarishi, rivojlanish va taraqqiyotni

inobatga olish muhim. Aslida "eski"dan voz kechishni tara-q-qiyot deb ham bo'lmaydi. Bunga o'zlikni anglash deb, o'z-o'zini kamsitish va pastga urishdan voz kechish deb qarash kerak.

To'g'risi, bir qarashda "eski" yoki "qadimgi nemis tili, alifbosi", "qadimgi rus" yoki "eski rus tili va alifbosi" tarzidagi atamalar ilm-fan iste'molidan o'rin olgan. "Qa-dimgi", "eski", "yangi" kabi sifattar dunyo tillari tasnifi va yoki tarixini davrlashtirishda ham bor. Bu dalilni ko'pchilik biladi. Ammo dunyoga o'sha toifadagi qator tillarga tegishli "eski alifbo" – uning eskicha shakldagi ko'plab harflari bu-gun amalda emas.

Ayni voqeikdan farqli o'la-roq, bugun biz "eski yozuv" degan alifboda hozir ham dunyoning ayrim mamlakatlari aholisi, xususan, afg'onistonlik, arabistonlik o'zbeklar, uyg'urlar foydalanib kelishadi. Bu esa alifboning "eski" emas, balki "tabarruk" va "mumtoz"ligi-ni ko'rsatadi. "Mumtoz" so'zi "saralangan, ajratilgan" ma'no-larini anglatadi.

XX asrda mumtoz yozuv umriga barham berildi, mum-toz yozuv yangi zamon-dan ajratildi. Holbuki, ayni yozuvda o'zbek mumtoz ada-biyotining eng sara, bebaho asarlari yozilganini inkor qilib bo'lmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, ko'p asrlik o'zbek mumtoz adabiyoti o'zbek mumtoz yozuvi va o'zbek mumtoz tili hamda betakror poetik tafak-kuri mahsulidir. Qolaversa, bu yozuvdagi ko'plab harflarning shakllari, deylik, "alif", "dol", "nun", "jim" kabi qator harflar mumtoz poetikada obraz hol-i-ga keldi. Bu mumtoz yozuv asosidagi ming yillik maxsus kollegrafik yozuv san'ati amal-da qo'lladi.

Darvoqe, bu fikrga qo'shil-maydigan kimdir odatdagidek "Hissiyotga berilmang" deyishi mumkin. Aslida hissiyot – bebaho tuyg'u. Muammolar his qilish, anglash, tuyg'ulanish va qiliqatni tuyish ortidan yechim topadi.

Bahodir NURMUHAMMAD



BIR SAVOLGA BIR JAVOB



NEGA AYRIM BOLALAR TO'RT YOSHIDA HAM GAPIRMAYAPTI?

Bugungi kunda bolalarda nutq rivojlanishining kechikishi jiddiy va keng tarqalayotgan muammolar sirasiga kiradi. So'nggi vaqtlarda ota-onalarning logoped shifokorlarga shikoyatlari soni ortib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Aslida muammoning kaliti miyada ekanligiga ko'pda e'tibor beravermaymiz.

Mavzu yuzasidan neyrojarroh **Dilshod Mamadaliyev** shunday deydi:

– Bilamizki, bolada bir-bir yarim yoshdan nutq shakllanadi. Bu jarayonni yanayam rivojlantirishning eng muhim yo'li bola o'rganishi kerak bo'lgan so'zlarni o'zining sof ona tilida gapirayotgan ota-onasidan yoki atrofidaqilardan eshitishi lozim. Shu orqali unda dastlab miyaning chakka bo'lagida lug'at boyligi shakllanishni boshlaydi. Lug'at boyligi ma'lum miqdorga yetgandan so'ng asta-sekin miyaning peshona bo'lagiga maxsus yo'l orqali o'tadi. Bu jarayonda nutq a'zolariga qanday so'zlarni qachon gapirish kerakligi haqida xabar boradi. Mazkur dasturning ishlash jarayonida bola doimiy ravishda yangi so'zlarni eshitib turishi kerak.

Bugun esa ko'pchilik ota-onalar farzandini ovutish maqsadida qo'lga telefon tutmoqda. Go'dakning xarxasha qilishi yoki e'tiboralabligidan qochayotgan yosh ota-onalar (aslida ulardagi sabrsizlikka ham telefon sababchi) bilishmaydiki, o'z farzandlari kelajagiga o'zlari raxna solyapti. Bolaning tili kech chiqishining

asosiy sababi uning qo'lidagi telefon orqali rus, ingliz va umuman, boshqa tillarda uzatilayotgan videolarni ko'rishidir. Telefon ushlagan bola undagi har bitta videoni ko'rib chiqaveradi, chunki u til bilmaydi, hatto o'zining ona tilini ham... Natijada nima bo'ladi? Tilning, nutqning shakllanishi buziladi. Odatda ikki yoki uch yoshda ravon gapirishi kerak bo'lgan bola to'rt yoki besh yoshda gapira boshlaydi. Farzandining nutqi kechikayotganidan ota-ona hayron, nima qilishini bilmay bolasini logoped shifokor ko'rigiga qayta-qayta olib boradi. Gapirishi kechikkan bola keyinchalik boshqa narsalarda ham asta-sekin ortda qolishni boshlaydi.

Miya o'ta moslashuvchan a'zo hisoblanib, ko'z va qo'l koordinatsiyasiga juda tez moslashadi. Yosh bolaning telefondagi o'yinlarga qo'l reflekslari shakllangach, ma'lum yutuqlarga erisha boshlaydi. So'ng bunday yutuqlarning ko'payishini xohlaydi. Natijada ko'zi va fikri faqat mana shu o'yin va uning ichidagi dunyoga bog'liq bo'lib qoladi.

Bugun bolamizning tili kech chiqayotganidan xavotirda bo'lsak, ertaga fikrlashi, bilim-saviyasining pasayib borayotganidan ham shikoyat qilish ehtimolimiz yuqori. Bunday oxiri berki yo'lga kirib qolmaslik uchun bugun farzandlaringizga vaqt ajrating. Bola bilan ko'proq suhbatlashing, ulardan vaqtigizni ayamang. Zero, kelajak o'z qo'limizda!

Vasila HABIBULLAYEVA tayyorladi.

BIRNI KO'RIB FIKR QIL

“NIDERLANDDA O'T YOQSAM...”

yoki Ovro'paning odmi to'ylari

Necha yildirki O'zbekistonda to'ylarni kamchiqim va ixcham tarzda o'tkazish lozimligi haqida jamoatchilik bong uradi. Qator-qator teleko'rsatuvlar tayyorlanib, aksariyat ekspertlar bu dabdaba-yu as'asaga tish-tirnog'i bilan qarshiligini bildiradi. To'y va ma'rakalarni tartibga solish to'g'risida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilingan, biroq bu borada aydarli natijalarga erishiladi...



Barchamiz to'yga taklif qilinamiz, bunday tantanalarda ko'p bora ishtirok etganmiz. To'ylarimizdagi kimo'zarlik avj olgan bashanglikni ko'rib, ensangiz qotadi, chetdan kelgan kishining ko'ziga bularning bari g'alati, anchagina bachkana ko'rinishi tayin.

Xo'p, mol-u davlati oshib-toshib yotgan ayrimlarning serdabdaba bazmi jamshid uyushtirishga mablag'i bor ekan, ammo aholining boshqa qatlami-chi? Qo'li kalta odamlar nima qilsin? El-u yurt ko'rsin uchun qarz-qavola ko'tarib bo'lsa ham, “qatordan qolishmay” to'y o'tkazmoqchi bo'lgan va bir amallab o'tkazib olib, orzu-havasini qondirgan o'sha bechoraholning to'ydin keyingi holi qanday kecharkin?

To'ylar nafaqat xalqning tinkasini quritadi, boz ustiga o'sha behuda xarajatlar ko'plab oilalarning darz ketib, hattoki buzilishiga ham sabab bo'lishi turgan gap. Qisqa qilib aytganda, to'ylar badavlat insonlar uchun topganini ko'z-ko'z qilish bo'lsa, aholining quyi qatlami uchun esa adog'i ko'rinmas g'am-tashvishdan boshqa narsa emas. Birgina mana shu kaltabinlikning o'zi millatni qashshoqlikka yetaklaydi.

Xalqning turmush tarzi boshqa bir millat hayoti bilan qiyoslanganda ko'zga aniqroq ko'rina boshlaydi. Mana shu mavzuda gap ochilganida, do'stlarimiz nuqul so'rashadi:

– Xo'sh, Niderlandiyada bu borada ahvol qanday?

Savol berganlarga doim aytamanki, bu mamlakatda to'ylar hashamsiz, ixcham o'tadi. Ba'zi to'ylarda 50 kishi

miyonasida mehmonlar qatnashsa, boshqasiga esa 200 kishidan ziyod mehmon taklif etiladi, biroq bularning hammasi ortiqcha dabdabadan xoli o'tkaziladi.

Ba'zi to'ylar besh-o'n kishi bilan ham o'tib ketaveradi. Bu mamlakatda yoshlar karnay-surnaysiz, kartejsiz, xit-parad qilmasdan ham nikohdan o'tib, turmush qurishadiki, ular behuda xarajatlar-u dabdabalar baxtli turmush hadya etmasligini yaxshi tushunishadi. Agar ikki yosh taqdirlarini bog'lashga qaror qilishsa, ular o'zlari yashayotgan “Gemeente” (hokimiyat)ga ariza tashlaydi.

Oila qurish uchun yigit va qizning daromadi yetarliymi? Birga yashashlari uchun boshpanasi bormi?

Mana shu masalalar muhim. Ular, albatta, inobatga olinadi, shundan so'nggina ariza ko'rib chiqiladi. Hokimiyat vakili ma'lum bir kunda nikohni rasmiy qayd etish uchun vaqt belgilaydi. Bu tadbir “Ceremonie huwelijk” deyiladi. Nihoyat, kelin va kuyov rasmiy ro'yxatdan o'tadi, mana shu jarayon oila qurilgani xususida ramziy ma'no ham kasb etadi. “Huwelijks ceremonie” (nikoh marosimi)dan so'ng ikki yoshni yaqinlari tabriklashadi, keyin esa “bruiloft” (to'y) bo'ladi. Bunda kelin-kuyovning do'stlari hamda yaqinlari qatnashadi. Bunday to'ylarning ko'pida men ham qatnashganman.

Shu joyda eng asosiy gapni aytay: niderlandlar oila mustahkamligi bo'yicha bizdan ancha oldinda.

Shahodat ULUG',
Niderlandiya

TILBILIM

DIN



“Din” so'zi lug'atlarda arabcha deb izohlangan, hatto arab tilida “dayana” yoki “daana” fe'li ham mavjud bo'lib, lug'atda bu fe'lning: “bo'ysunish”, “itoat etish”, “qarz olish”, “qarz berish”, “mahkamaga tortish” kabi ko'plab ma'nolari keltirilgan. Shuningdek, bu fe'ldan:

idaana – ayblov;
day'in – qarz beruvchi, kreditor;

dayyaan – hakam (sudya);
diyonaat – inonch, diniy ta'limot kabi ko'plab masdarlar ham yasalgan.

Ammo “din” so'ziga biz Islomdan oldingi manbalar, hattoki turkiy bitiklarda ham duch kelamiz. Shunday turkiy, uyg'ur yozuvida bitilgan manbalardan biri – Islomdan oldingi, taxminan V asrga mansub deb qaraladigan “Xuastvanif” – “Moniylik tavbanomasi” bo'lib, bu bitik o'sha paytdagi eroniy tillarning biridan turk-uyg'ur tiliga tarjima qilingan. Asar moniylik ta'limotiga oid bo'lgani uchun unda ba'zi diniy atamalar, iboralar, deylik: “manstar g'irza” (“gunohlarimizni kechir”),

“chag'sapat” (“bir oy tutiladigan ro'za”), “nom” (“muqaddas kitob”), “bristi” (“farishta”), “dintar” (“dindor”, “diniy arbob”, “ruhoniy”) kabi so'zlar tarjimasiz, asliyat tilida keltirilgan. Misol uchun yodgorlikning 152-satrida shunday so'zlar bor: “... tahrichi, nomchi arig' dintarlarqa nacha yazintimiz yahtitimiz arsär...” (Ma'nosi: “tangrichi, ya'ni xudoyo'y, muqaddas kitobga mansub sof diniy arboblardir oldida necha gunohlarimiz, yanglishish-xatolarimiz bo'lsa...”)

Ya'ni, moniylikda “dintar” deb o'sha inonchning diniy vakili, ruhoniyisiga nisbatan aytilgan. Tarixdan ma'lumki, moniylikka eramizning III asrida Sosoniylar davlatida parfiyalik faylasuf, musavvir va shoir Moniy (Fatak o'g'li) tomonidan asos solingan. U o'ziga xos gnostik inonch bo'lib, Moniy nasroniylik, yahudiylilik, buddaviylilik, braxmanlik, zardushtiylik kabi dinlarni o'rganib, ular asosida o'z ta'limotini yaratgan.

Ammo “din” so'zining kelib chiqishi moniylik emas, balki undan ham ancha oldingi davrlarga borib taqaladi. Tarixdan ma'lumki, Islomdan qariyb ming

yil oldin – eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida Zardushtiylik inonchi tili, sanskrit tillarida hozirgi “din” anglamidagi “daēnā” so'zi mavjud bo'lib, zardushtiytlar o'z dinlarini dastlab “wahwi daēnā”, ya'ni “yaxshi din” deb ataganlar, keyinchalik bu ibora – “weh din” – “beh din” (“yaxshi din”) shakliga kelgan. Ko'pchilik mutaxassslar “din” so'zi somiy va oromiy tillar, jumladan, arab tiliga ham aynan taqaladi. Agar chindan shunday bo'lsa, bu so'z fors, sanskrit tillariga, shu bilan birga, akkad tili orqali somiy, oromiy, ya'ni arab va ibroniy tillariga ham bevosita shumer tilidan o'zlashgan bo'lishi mumkin. Har holda, so'zlar yozuv paydo bo'lishidan minglab yillar oldin ham bor edi.

Abduvohid HAYIT

TARMOQLARDA NIMA GAP?



TELEFONQARAMLIKDAN QUTULISH YO'LI

Kunlar isib, atrof gul-u giyohlarga burkangan bir pallada elimiz shod-xurram Navro'z bayramini nishonlashga chog'langan. Dam shu dandir, deb qir-adirlarga chiqib har tomonga yugurgung, ko'ksingni nafas havosiga to'ldirib to'ldirib o'ldirib keladi. Bu istakni juda ko'p yurtodoshlarimizning ko'zidan o'qib olish mumkin. Biroq, afsuski, aksariyat yoshlarga e'tibor bilan boqsangiz, dam shunday yashnab turgan pallada ham ularning ko'zida telefon ekranining aksini ko'rasiz.

Navro'z qadimdan xalq o'yinlari, milliy sport turlari va ommaviy musobaqalar bilan nishonlab kelingan. Kurash, uluq-ko'pkari, poygalar, kamondan o'q otish, chavgon kabi milliy sport turlari xalqning tani va joniga quvvat bergan, mardlik va birdamlikni uqtirgan, o'rgatgan. Navro'z deganda tasavvurda yengini haloplatib, chaqqon-chaqqon sakrab qo'yayotgan polvonning kurashga chog'langani, ko'zlari porlab, jon-jahdi bilan arqon tortayotgan bolalarning shodon qiyqirig'i, bor mahoratini ishga solib otining gavdasini tik tutirib kishnatayotgan chavandozning poygaga otlangani jonlanadi. Ammo bular endi xuddi tasavvurligicha qolib

ketganday. Qishloqlarda-chi, deb malomat qilishga chog'lanmang. Bu gaplarni yaqinda qishloqqa borib, o'z ko'zim bilan ko'rib kelganim uchun yozyapman. Qishloq bolalari ham allaqachon gadjetlarga mukaddan ketgan. Tabiatdan zavqlanishni, uning mo'jizalaridan bahra olishni unutib qo'ygan go'yo.

To'g'ri, bayram kunlarida yurtimizning turli nuqtalarida har xil musobaqalar o'tkazib turiladi. Ammo ular yetarlicha targ'ib qilinmayapti, shekilli, telefon qaramligini yenga olmayapti. Axir, bu kunlar yoshlarni sport musobaqalariga qiziqitirib olishning ayni mavridi emasmi?

Bu mulohazalar aslo zamonaviy texnologiyalarni inkor qilayotganimni anglatmaydi. U – bilim. Dunyodagi ilg'or texnik ilmlarni, albatta, o'rganish kerak. Biroq hazrat Navoiy ta'kidlaganlaridek, inson komillikka ham ma'nan, ham jismonan yetuklik orqali erishadi. Shunday ekan, farzandlarimizga, uka-singillarimizga buni tushuntiraylik, tabiat qo'yniga olib chiqaylik, birga o'yinlar o'ynaylik, toki ularning ko'zida telefon ekranining so'niq aksi emas, hayotga tashnalikning, ishtiyq va zavqning porloq nuri yariqirab tursin!

Do'stmuhammad HAMROYEV,
Facebook

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI



“SHAHIDLILAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 317
Lotin yozuvidagi adadi – 12 627
Media kuzatuvchilar – 38 504
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:15
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz